

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI
TARIX VA IJTIMOIV FANLAR FAKULTETI
«IQTISODIYOT VA SERVIS» KAFEDRASI

«HIMOYAGA TAVSIYA ETILADI»

Iqtisodiyotvaserviskafedramudiri

_____ I.f.n.G.Qo'chqorov

«____»_____ 2018-yil

« TASDIQLAYMAN»

«Ijtimoiy fanlar» *fakulteti* dekani

_____, prof. B. Eshov

«____»_____ 2018-yil

“Kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirishning axoli bandligiga tasiri.”

mavzusidagi

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

BAJARDI: “Mehnat iqtisodiyoti va sotsiologiyasi”

ta’lim yo’nalishi IV kurs 014-9 guruh talabasi

Xujamberdiyev Dilxush Zafarovich

ILMIY RAHBAR:

Iqtisodiyotvaserviskafedrası

o’qit. J. Sh.Xalimov

Bitiruv malakaviy ishi kafedrada dastlabki himoyadan o’tdi

_____ sonli bayonnoma «_____» _____ 2018-yil

KIRISH

Bitiruv malakaviy ishi mavzusining dolzarbligi. Mamlakat iqtisodiyotida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojlanishining muhim muammolarini hal etish uchun iqtisodiy asoslarni yaratishning hal qiluvchi omili hisoblanadi. Ular bozor talablariga eng ko‘p egiluvchanlik va moslashganlikka ega bo‘lgan holda, aholi turmush tarzi va shart-sharoitiga yangilik kirituvchi, bosh yo‘lni ko‘rsatuvchi bo‘lib chiqadi. Tadbirkor o‘z firmasida iqtisodiy o‘sishni ta‘minlash uchun mehnat unumdorligini oshirishning muhim omili bo‘lgan fan-texnologiyaning yangi yutuqlaridan maksimal foydalanishga harakat qiladi.

Jahon amaliy tajribasining ko‘rsatishicha, kichik biznes yirik ishlab chiqaruvchilarga nisbatan kapital mablag‘ sarfini kam talab qilishi, ixchamligi, shart-sharoitdan kelib chiqqan xolda uzi ishlab chiqarayotgan maxsulotlar turlarini tez o‘zgartira olishi, ishlab chiqarish quvvatlarini jadal modernizatsiya qilish imkoniyatiga egaligi bilan muhim ahamiyat kasb etadi. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik bozor konyukturasining o‘zgaruvchan talablariga xamda vaqti-vaqti bilan bo‘lib turadigan iqtisodiy inqirozlarga tezroq moslasha oladi.

Mamlakatimizda aholi bandligini ta‘minlash jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining eng muhim shartlaridan biri hisoblanadi va u iqtisodiyotda alohida ahamiyatga ega. O‘zbekistonda aholini ish bilan ta‘minlashni yanada yaxshilash va uning farovonligini oshirishning eng muhim yo‘nalishi sifatida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, xizmat ko‘rsatish va kasanachilik sohalarini qo‘llab-quvvatlash va rivojlantirishni rag‘batlantirish, ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmani yanada rivojlantirish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Prezidentimiz ta’kidlaganlaridek: “2015 yilda mamlakatimizda kompleks chora-tadbirlar dasturini amalga oshirish hisobidan qariyb 1 millionta yangi ish o‘rni tashkil etildi. Bu ish o‘rinlarining 62 foizga yaqini qishloq joylarda yaratildi. Bu borada kichik korxonalarda 281,8 mingta va yakka tadbirkorlikda 87,4 ming kishi, kasanachilikning barcha shakllarini kengaytirish hisobidan esa 218 ming kishi ish bilan ta‘minlandi.”

Yuqoridagilar bitiruv malakaviy ishimiz mavzusining naqadar dolzarb ekanligini belgilab beradi.

Bitiruv malakaviy ishning maqsadi aholini ish bilan ta'minlashda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rolini amaldagi holatini o'rganish va aholining ish bilan ta'minlanganligini oshirish yuzasidan xulosalar qilish.

Bitiruv malakaviy ishning vazifalari. Ushbu maqsaddan kelib chiqqan holda quyidagi vazifalar qo'yildi:

- aholi ish bilan ta'minlanganligining iqtisodiy mohiyati va ahamiyatini yoritib berish;
- O'zbekiston kichik biznes tadbirkorlikning tashkiliy-huquqiy asoslarini o'rganish
- O'zbekistonda aholining ish bilan ta'minlanganligining amaldagi holati hamda bu jarayonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning o'rnini izohlab berish;
- ish o'rinlarini tashkil etish bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ahamiyatini ochib berish;
- aholini ish bilan ta'minlashda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rolini statistik ma'lumotlar asosida tahlil qilish;
- kasanachilik – aholini ish bilan ta'minlashning muhim omili ekanligini ko'rsatib berish;
- yoshlarni va kasb-hunar kollejlarni bitiruvchi talabalarni ish bilan ta'minlashda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rolini oshirish yo'llarini asoslash;

Bitiruv malakaviy ishning obyekti va predmeti. Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasidagi tadbirkorlik subektlari tomonidan aholini ish bilan ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlar majmuasi hisoblanadi.

Tadqiqotning nazariy va amaliy ahamiyati. Bitiruv malakaviy ishida ilgari surilgan ilmiy-nazariy g'oya, taklif va tavsiyalardan mamlakatimizda, xususan kichik biznes va tadbirkorlik sohasini rivojlantirish va samarali tartibga solish borasida foydalanish mumkin.

Shuningdek, tadqiqot materiallaridan oliy o‘quv yurtlarida "Biznes asoslari", “Kichik biznes va tadbirkorlik” kabi maxsus kurslar bo‘yicha ma’ruza matnlarini tayyorlashda va ta’lim jarayonida qo‘llash mumkin.

Bitiruv malakaviy ishning tarkibiy tuzilishi.

Mazkur bitiruv malakaviy ishi kirish, 3 ta bob, xulosa va takliflar hamda foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat.

AHOLINI ISH BILAN TA'MINLASHDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK FAOLIYATINI TASHKIL ETISHNING NAZARIY ASOSLARI

1.1. Milliy iqtisodiyotda tadbirkorlik va kichik biznesning o'рни, mohiyati va xususiyatlari

Mamlakatimizda Prezidentimiz Islom Karimov rahnomoligida milliy iqtisodiyotni rivojlantirish bo'yicha ishlab chiqilgan beshta tamoyilni o'z ichiga oluvchi "o'zbek modeli" doirasidagi chora-tadbirlarning izchil amalga oshirilishi bugungi kunda iqtisodiyotning barqaror o'sish sur'atlarini ta'minlash imkonini bermoqda. Shu jihatdan, islohotlarni izchil davom ettirish va chuqurlashtirish, mamlakatni modernizatsiya qilish, shu asosda O'zbekistonning rivojlangan davlatlar qatoriga qo'shilishi yo'lida muhim va istiqbolli yo'nalishlarni amalga oshirish yaqin yillarda iqtisodiyotning barqaror yuqori o'sish sur'atlarini saqlashga qaratilgan iqtisodiy siyosatning asosiy vazifasi hisoblanadi.

Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasi hukumati tomonidan olib borilayotgan iqtisodiy islohotlarning eng muhim jihatlaridan biri - bu tadbirkorlik va kichik biznes subektlarini rivojlantirish asosida mamlakat yalpi ichki mahsuloti hajmini keskin oshirish, bandlik masalalarini hal qilish, aholi daromadlarini ko'paytirish hamda milliy farovonlikni ta'minlashdan iboratdir. Chunki yirik ishlab chiqarish obektlarigi qaraganda kam sarmoya talab qiladigan hamda turli o'zgarishlarga moyil bo'lgan tadbirkorlik va kichik biznes subektlari mahsulot turlarini yangilash, ishlab chiqarishni modernizatsiyalash va shu bilan birga, bozor konyunkturasinig beqaror hamda vaqti-vaqti bilan takrorlanib turadigan iqtisodiy inqirozlari sharoitiga tez moslashuvchandir. O'zbekiston sharoitida bunday tebranishlarga mustahkam roydevor yaratib olishda qabul qilingan "o'zbek modeli" hamda uning beshinchi tamoyili ya'ni bozor iqtisodiyotiga bosqichma-bosqich o'tishda bu soha ya'ni tadbirkorlik va kichik biznesning tutgan o'рни g'oyat kattadir hamda ko'zlangan maqsadlarga erishish yo'lida muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Dastlabki yillardanoq kichik va xususiy korxonalar tashkil qilishga katta ahamiyat berildi. Ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida Prezidentimiz I.A.Karimov

ta'kidlab o'tganlaridek, «... qishloq joylarida ixcham ishdab chiqarish korxonalari tashkil etish, kichik va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishni rag'batlantirish hisobiga aholining ish bilan bandligini ta'minlash siyosatini faol amalga oshirmoqdamiz».

Tadbirkorlik faoliyati tushunchasi 2012 yilda 2 mayda qabul qilingan «Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqida»gi yangi tahrirdagi qonunning 3-moddasida quyidagi tahrirda bayon etiladi: «Tadbirkorlik faoliyati (tadbirkorlik) – tadbirkorlik faoliyati subektlari tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladigan, tavakkal qilib va o'z mulkiy javobgarligi asosida daromad (foyda) olishga qaratilgan tashabbuskor faoliyatdir».

Kichik tadbirkorlik faoliyati (kichik tadbirkorlik) – kichik tadbirkorlik subektlari tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladigan, tavakkal qilib va o'z mulkiy javobgarligi ostida daromad (foyda) olishga qaratilgan tashabbuskor faoliyat. Tadbirkorlik faoliyati – bu tahlilga boruvchi faoliyatdir. Tadbirkorlikning rivojlanishi, o'z navbatida, bir qator sharoitlarning mavjud bo'lishini taqozo etadi, Ular asosida umuman tovar ishlab chiqarishning umumiy ijtimoiy – iqtisodiy shart-sharoitlari yotadi:

Birinchidan, tadbirkor xo'jalik yuritishda uning subektlarida xo'jalik yuritishning u yoki bu turini tanlash bo'yicha, ishlab chiqarish dasturini shakllantirishi, moslashtirish, manbalarni tanlash, resurs topish, mahsulot sotish, ularga baho belgilash, foydani tasarruf qilish va shu kabilar bo'yicha ma'lum xuquq va erkinliklar mavjud bo'lishini taqozo etadi.

Ikkinchidan, tadbirkor ishlab chiqarish vositalariga, ishlab chiqarilgan mahsulot va olingan daromadga mulkchilik xuquqiga ega bo'lishi kerak. Tadbirkorlik faoliyati mulkdorning o'zi tomonidan ham, uning mol-mulki asosida ish yurituvchi subekt tomonidan ham amalga oshirilishi mumkin.

Uchinchidan, xo'jalik yuritish yo'lini erkin tanlash, daromadni investitsiyalash imkoniyati va shu kabilarni real ta'minlaydigan ma'lum iqtisodiy muhit va ijtimoiy siyosiy sharoit yaratishi zarur.

To'rtinchidan, erkin tadbirkorlik, mulkchilik va o'zlashtirishning turli-tuman

shakllari va turlarini taqozo qiladi. o'z navbatida turli-tumanlilikning o'zi obektiv xodisa bo'lib, ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanishi oqibati sifatida maydonga chiqadi.

Yetarli moliyaviy manbalarga, yaxshi ma'lumot va malakali tayyorgarlikka ega bulish, umumiy tijorat konunchiligi, solik buyicha imtiyozlar, tadbirkorlik muxiti va uni rivojlantirishda jamiyat manfaatdorligining mavjud bulishi tadbirkorlikni rivojlantirishning navbatdagi shart-sharoitlari xisoblanadi.

Tadbirkorlik va kichik biznesning rivojlanish jarayonlarini tadqiq kilish uni tarixan shakllanish bosqichlarini aniqlash masalasini hal qilishni taqoza qiladi. Ushbu masalani yechishga O'zbekistonlik bir guruh olimlar o'z fikrlarini bildirishgan. Ular «tadbirkorlikni taraqqiy etish nuqtai nazardan: rivojlangan, rivojlanayotgan va rivojlanmagan tadbirkorlikka bo'lishimiz mumkin. O'tish uchun rivojlanayotgan tadbirkorlik xos bo'lsa, taraqqiy etgan davlatlarga rivojlangan tadbirkorlik xosdir. Ayrim mamlakatlar taraqqiyoti darajasidan kelib chiqqan holda shuni aytishimiz mumkinki, ularda rivojlanmagan tadbirkorlik ham mavjuddir» – deb ta'kidlashib, tadbirkorlikning rivojlanishini uch davrga va uning uchinchi davrini 1,2 va 3-4 (ushbu bosqichlar birlashtirilgan) bosqichlarga bo'lishni tavsiya qilgan.

Tadbirkorlikni shakllanishi, uni tarmoqlarga bo'linishi insoniyat jamiyati rivojlanishining XVII-XVIII asrlarga to'g'ri keladi. XX asrning boshlarida butun dunyoda tadbirkorlik faoliyatini rivojlanish tendensiyalari kuzatila boshladi va XX asrga kelib tadbirkorlik faoliyatini yuksalish davri deb hisoblash mumkin.

O'zbekistonning hozirgi hududi nuqtai nazaridan tadbirkorlik faoliyatini rivojlanish davrlari quyidagicha taqsimlansa, tarixiy va ilmiy-nazariy jihatdan haqiqiatga yaqinroq bo'ladi.

1-davr. XVII asr va XVIII asrning boshlari davomida tadbirkorlik faoliyatini vujudga kelishi, tarmoqlarga taqsimlanishi va shakllanish bosqichi deb hisoblash mumkin.

2-davr. 1917 yildan 1991 yilgacha bo'lgan davr. Tadbirkorlik va tashabbuskorlikka ahamiyat berilmagan, agar rejada ko'zda tutilgan bo'lmasa, yuzaga chiqmaydigan, xususiy mulk inkor qilingan davrdir.

3-davr. Respublikamiz mustaqillikka erishgandan keyingi 1991-2010 yillarni qamrab olgan davr. Bu davrning xususiyatli tomoni iqtisodiyotda tanglik holati hukm surishi, iqtisodiyotni erkinlashtirish va barqarorlashtirish bosh vazifa qilib belgilanishi, davlat tomonidan uni amalga oshirishning maxsus mexanizmi yaratilishi, mulkni xususiylashtirish va uning davlat tasarrufidan chiqarilishi, tadbirkorlikka keng yo‘l ochib berilib, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish ustuvor vazifa qilib belgilanishi bilan tavsiflanadi. Ushbu davrni tadbirkorlik va kichik biznesrivojlantirishning meyoriy-huquqiy asoslari to‘liq yaratilgan davr sifatida baholash mumkin».

Mazkur davrni shartli ravishda to‘rt bosqichga bo‘lib tadqiq qilish lozim degan xulosaga kelindi:

1-bosqich 1991-2000 yillarni o‘z ichiga oladi. Bu O‘zbekistonning nafaqat siyosiy, balki iqtisodiy mustaqillikka erishgan davri bo‘ldi. Tadbirkorlikka

keng yo‘l ochilib, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni shakllantirish va rivojlantirish bo‘yicha tegishli meyoriy-huquqiy hujjatlar tizimi ishlab chiqildi va amaliyotga tadbiq etildi.

2-bosqich 2001-2006 yillarni o‘z ichiga oladi. Bu bosqichda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subektlari amalda shakllandi. Ularning muvaffaqiyatli rivojlanishi uchun sharoit yaratildi. Davlat tomonidan tegishli yordam ko‘rsatilib, imtiyozlar berildi.

3-bosqich 2007-2010 yillarni o‘z ichiga oladi. Bu bosqich 2008 yil avgust oyida AQSH Ipoteka banki inqirozi sababli jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining boshlanishi, O‘zbekistonda inqiroz sharoitida tadbirkorlik va kichik biznesni qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarni yanada takomillashtirish bilan bog‘lio‘ tadbirlarning amalga oshirilishi, ularni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha tegishli huquqiy-meyoriy hujjatlarning takomillashtirilishi ro‘y berishi bilan izohlanadi.


4-bosqich 2011 yildan boshlanadi. Mazkur yil «Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik yili» deb e‘lon qilinishi munosabati bilan uzoq muddatga mo‘ljallangan kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish Davlat dasturi qabul qilindi. Shunga asosan, mamlakatimizning har bir viloyati va tumanlarida ushbu sohani

rivojlantirish bo'yicha hududiydasturlar ishlab chiqildi va ularni amalga oshirish chora-tadbirlari ko'rilmoqda.

Tadbirkorlik faoliyatida bunday shart-sharoitlar bo'lishi bilan birgalikda bir qancha muhim belgilarning mavjudligi ham uning o'ziga xos xususiyatlarini namoyon qiladi:

1.1.1-chizma

Tadbirkorlik faoliyatining muhim belgilari¹



“Bugungi kunda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik o'ta muhim va salmoqli hissasi, roli va ta'siri, sodda qilib qilib aytganda, boshqa xech bir soha va yo'nalish o'rnini bosolmaydigan katta ahamiyati bilan davlat va jamiyatimiz rivojida alohida o'rin egallaydi. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning izchil rivojlanib borishini ta'minlash orqali biz mamlakatimizda jamiyatimizning ijtimoiy-siyosiy tayanchi va poydevori bo'lgan o'rta sinfning shakllanishiga va uni tobora mustahkambo'lib borishiga erishmoqdamiz”, deb ta'kidlagan edi yurtboshimiz o'zining Konstitutsiyamizning o'n sakkiz yilligiga bag'ishlangan ma'ruzasida. Albatta, dunyoda iqtisodiyotni rivojlantirishning juda ko'p usullari mavjud. Lekin ular orasida eng samaralisi va maqbuli, bu - kichik biznes va xususiy tadbirkorlik ravnaqi uchun keng yo'l ochib berishdir.

Kichik biznesni rivojlantirish natijasida iqtisodiyotda quyidagi afzalliklarga erishiladi:

¹Manba Iqtisodiy adabiyotlardan foydalangan holda muallif tomonidan tuzilgan

- ishlab chiqarish omillari samarali taqsimlanadi;
- yangi ish o‘rinlari vujudga keladi;
- aholi daromadi ortadi;
- raqobat rivojlanadi;

Kamchiligini esa:

- kichik biznesga kiritilayotgan investitsiyalarning yalpi investitsiyadagi ulushining kamligi bir qator muammolarni keltirib chiqarishi;
- kapitalintensivlik darajasining kichikligi, o‘z navbatida, mehnat unumdorligining pastligi bilan faoliyatdan olinadigan daromadning kam bo‘lishi;
- yuqori darajada mehnat omilini jalb etganligiga qaramasdan, investitsiyaviy jozibadorligi, ayniqsa, xorijiy investitsiyalarni jalb etish darajasi pastligi kabilarda ko‘rish mumkin.

Prezidentimiz tashabbusi bilan 1997 yildan boshlab, kirib kelayotgan har qaysi yangi yilga nom berish, shundan kelib chiqqan xolda aloxida Davlat dasturi qabul qilish va belgilab olingan vazifalarni izchil amalga oshirish uziga xos an‘anagan aylangan. Konstitutsiyamiz qabul qilinganining 18 yilligiga bag‘ishlab utkazilgan tantanali marosimda Yurtboshimiz 2011 yilni mamlakatimizda “Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik yili” deb e‘lon qilishni taklif etdilar. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011 yil 7 fevralda qabul qilingan PQ-1474-sonli aroriga muvofik «Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik yili» davlat Dasturi tasdiklandi. Mazkur dasturda joriy yilda uz ichiga olgan jami 115 ta chora-tadbir xamda vazifalarni amalga oshirish belgilab kuyilgan. Shu jumladan, «Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik yili» davlat Dasturida kichik biznesning xukukiy asoslarini yanada takomillashtirish soxasida birgina 2011 yilning birinchi yarim yilligida «Xususiy mulkni himoyalash va mulkdorlar huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida», «Tadbirkorlik faoliyati sohasida ruxsat berish shart-sharoitlari to‘g‘risida», «Oilaviy tadbirkorlik to‘g‘risida»gi yangi qonun loyihalarini, shuningdek, «Tadbirkorlik faoliyati erkinliklarining kafolatlari to‘g‘risida»gi Konunninig yangi tahrirdagi loyihasini hamda «Soliq kodeksi»ga, «Ayrim faoliyat turlarini litsenziyalash

to'g'risida»gi Qonunlarga o'zgartirish va qo'shimchalarni kiritish yuzasidan tegishli qonun loyihalarini ishlab chiqish vazifalari belgilangan.

Umuman, rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlar tajribasi ham ko'rsatadiki, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik mamlakat taraqqiyotining jadal suratlar bilan o'sishiga, makroiqtisodiy barqarorlikka erishish, aholining bandligini oshirishga xizmat qiladi.


1.2. Kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatining turlari va shakllari

Tadbirkorlik faoliyati turlari xilma-xildir. Faoliyat maqsadi, turi va qishloqlariga qarab tadbirkorlik faoliyatining ishlab chiqarish, tijorat, moliyaviy va konsalting turlarini ajratish mumkin.

Qayd etilgan ushbu tadbirkorlik faoliyatining har bir turi kichik turlarga bo'linadi.

1.2.1-chizma

Mavjud tadbirkorlik faoliyati turlarini chizma shaklida quyidagicha ifoda etish mumkin¹



¹Manba:Iqtisodiy adabiyotlardan foydalangan holda muallif tomonidan tuzilgan

Ishlab chiqarish tadbirkorligi. Ishlab chiqarish tadbirkorligini tadbirkorlik faoliyatining asosiy turi desa xato bo'lmaydi. Zero, bunday tadbirkorlik faoliyati tufayli mahsulot, tovarlar ishlab chiqariladi, xizmat ko'rsatiladi, ma'lum ma'naviy qadriyatlar yuzaga keladi.

O'zbekistonda bozor iqtisodiyotiga o'tishning dastlabki yillarida **tijorat tadbirkorligi** yaxshi rivojlandi. Agar ishlab chiqarish korxona samaradorligining 10-12% ini tashkil etadi, tijorat faoliyati esa bu ko'rsatkichni yana 20-30%ga oshiradi.

Moliyaviy tadbirkorlik, tadbirkorlik sohasining alohida olingan turiga kiradi. Uning faoliyat sohasi qiymatlarning almashinishi va almashtirilishidan iborat. Moliyaviy faoliyat ishlab chiqarish, tijorat sohasini ham qamrab olishi mumkin. Shuningdek, moliyaviy tadbirkorlik mustaqil bank va sug'urta muassasalari shaklida ham faoliyat yuritadi.

Moliyaviy bitim tadbirkorlik faoliyatining ilgarigi turlariga nisbatan kamroq samara beradi. Bu ko'rsatkich 5-10%ni tashkil etadi. Keyingi vaqtda O'zbekistonda tadbirkorlik faoliyatining **konsalting (maslahat) turi** rivojlanmoqda. Bu tadbirkorlik turi ko'p ko'rinishlardan iborat bo'lib, kelajakda yaxshi rivojlanib ketishiga jahon iqtisodiyoti taraqqiyoti guvohlik beradi.

Tadbirkorlik faoliyati turlari nisbatan mustaqil bo'lib, bir-birini to'ldirib keladi. Tadbirkorlik faoliyatining barcha turlarini belgilab beruvchi ishlab chiqarish tadbirkorligining ustuvorligini tan olish kerak.

Innovation, ilmiy-texnik faoliyat, tovarlarni bevosita ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish va shu sohadagi axborot bilan ishlash faoliyati ishlab chiqarish tadbirkorligiga kiradi. Ishlab chiqarish bilan shug'ullanmoqchi bo'lgan har bir ishbiarmon tadbirkorlik faoliyatining qaysi turi bilan shug'ullanishi, qanday mahsulot ishlab chiqarishi, qanday xizmat ko'rsatishini oldindan belgilab olishi lozim. Shu ish amalga oshgandan keyin tadbirkor marketing bilan shug'ullanadi. U tovarga talabni bilish maqsadida tovarning potensial iste'molchilari, xaridorlari, ulgurji va chakana savdo bilan shug'ullanuvchi tashkilotlar bilan aloqa qiladi. Mahsulotni sotish, biror-bir ishni bajarish, xaridorga, iste'molchiga xizmat

ko'rsatish va ma'lum hajmda foyda olish tadbirkor ishlab chiqarish faoliyatining natijasidir. Tadbirkorning umumiy moliyaviy bahosini rentabellik ko'rsatkichi belgilaydi.

Tadbirkorlik mulk shakllariga ko'ra davlat, nodavlat, shu jumladan, xususiy, aralash shakllarda namoyon bo'ladi. Nodavlat shakllariga xususiy - yakka va xususiy - jamoa tadbirkorligi kiradi. O'z navbatida xususiy - yakka tadbirkorlik subyekting o'z mexnatiga va yollanma mehnatga asoslangan bo'ladi. **Xususiy** - jamoa tadbirkorlikka sheriklik, paychilik jamoalari, aksiyadorlik jamiyatlari kiradi. Aralash tadbirkorlik ko'shma, aralash va ijara korxonalari shaklida namoyon bo'ladi.

Uyushish darajasiga ko'ra, yakka tartibdagi va jamoa tadbirkorlik shakllari mavjud. Yakka tartibdagi tadbirkorlikka yakka tartibda mexnat faoliyati bilan shug'ullanuvchi, o'z mexnatiga, xususiy va yollanma mexnatga asoslangan xususiy tadbirkorlik, oilaviy korxonalar kiradi.

Tadbirkorlikning jamoa shakliga davlat, shirkat, sheriklik, paychilik, mexnatjamoasi korxonalari, aksiyadorlik jamiyatlari va hokazolar kiradi.

Faoliyat sohasiga ko'ra, tadbirkorlik ishlab chikarish, xizmat ko'rsatish, tijorat ishi va tijoratda vositachilik qilish shakllariga ega bo'ladi. Tadbirkorlik korxonasida ish bilan band bo'lgan xodimlar mikdoriga ko'ra kichik, yirik tadbirkorlik shakllarida o'z ifodasini topadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, aytish mumkinki kichik tadbirkorlik ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatga ega. O'zbekiston Respublikasida «Tadbirkorlik to'g'risida»gi qonuninng 5-moddasiga binoan tadbirkorlikning quyidagi shakllari mavjud:

- yakka tartibdagi tadbirkorlik; - xususiy tadbirkorlik; - jamoa tadbirkorligi; - aralash tadbirkorlik.

Yakka tartibdagi tadbirkorlik tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish- ning eng oddiy shakli bo'lib, uni tashkil qilish tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1995 yil 14 fevraldagi qarori bilan tasdiqlangan «O'zbekiston Respublikasida xususiy tadbirkorlik to'g'risidagi Nizom» bilan belgilanadi. Ushbu nizomga muvofiq yakka tadbirkor o'z faoliyatini yuridik shaxs tashkil qilmay

amalga oshirishi mumkin. Yakka tartibdagi tadbirkorlik o'z navbatida ikki turga bo'linadi: - shaxsiy tadbirkorlik; - birgalikdagi tadbirkorlik.

Shaxsiy tadbirkorlik tushunchasi «Tadbirkorlik va tadbirkorlar faoliyatining kafolatlari to'g'risida»gi qonunning 15-moddasida quyidagicha bayon etiladi: «Shaxsiy tadbirkorlik yakka tartibdagi tadbirkorlarning o'zi tomonidan mulk huquqida, shuningdek mulkka egalik qilish va (yoki) undan foydalanishga yo'l qo'yadigan o'zga mulkiy huquq tufayli o'ziga tegishli mol-mulk negizida mustaqil ravishda amalga oshiriladi».

Ushbu qonunning 16-moddasiga binoan birgalikdagi tadbirkorlikka quyidagilar kiradi:

- er-xotinning umumiy mol-mulki negizida amalga oshiriladigan oilaviy tadbirkorlik; - dehqon xo'jaligining umumiy birgalikdagi mulki negizida amalga oshiriladigan dehqon xo'jaligi; - o'zlariga umumiy ulushi mulk huquqida tegishli bo'lgan umumiy mulk negizida yakka tartibdagi tadbirkorlikni amalga oshiradigan shirkat xo'jaligi.

Yuridik shaxs tashkil qilmay, o'z faoliyatini amalga oshiradigan tadbirkor sifatida ro'yxatdan o'tkazilgan jismoniy shaxsga davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi haqidagi guvohnoma beriladi va u jismoniy shaxslarni ro'yxatdan o'tkazish reyestrda qayd qilinadi. Ushbu guvohnoma bankda hisob-kitob varag'i ochish, soliq organlaridan ro'yxatdan o'tish, muhr va boshqa rekvizitlarni tayyorlash uchun asos hisoblanadi.

O'zbekistan Respublikasida «Xususiy tadbirkorlik to'g'risidagi Nizom»da xususiy tadbirkorlik faoliyatiga quyidagicha ta'rif berilgan:


Xususiy tadbirkorlik fuqarolar (alohida fuqaro) tomonidan o'z tavakkalchiliklari va mulkiy javobgarliklari ostida, shaxsiy daromad (foyda) olish maqsadida amaldagi qonunchilik asosida amalga oshiriladigan tashabbuskor xo'jalik faoliyatidir.

Jamoa tadbirkorligi bir guruh fuqarolarning o'zlariga ma'qul bo'lgan mulkchilik shakllarida jamoalarga birlashib, jamoa korxonalarini tashkil etishlari va shu asosda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishlaridir.

Xususiy firma deganda ayrim shaxs yoki oilaga tegishli, yakka xususiy mulkka asoslanib faoliyat yuritadigan korxona tushuniladi.

1.2.2-chizma

Firma (korxona) larning turlari¹



Shirkat firma bir necha sohibning mulkini birlashtirish va tadbirkorlikdan olinadigan foydani baham ko'rishga asoslangan sherikchilik korxonasidir.

Shirkat firmalarining ikki turi mavjud

- mas'uliyati cheklanmagan jamiyatlar;
- mas'uliyati cheklangan jamiyatlar

1.3. O'zbekistonda kichik biznes va tadbirkorlikni tashkil etishning huquqiy asoslari

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgach, iqtisodiy islohotlarning asosiy yo'nalishlaridan biri sifatida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni jadal rivojlantirishga asosiy e'tibor qaratildi. Davlat tomonidan bu sohaning rivojlanishi uchun zarur bo'lgan huquqiy, institutsional, moliyaviy elementlarni o'z ichiga oluvchi baza yaratildi, tegishli meyoriy- qonunchilik va tashkiliy-huquqiy holatlar

¹Manba:Iqtisodiy adabiyotlardan foydalangan holda muallif tomonidan tuzilgan

takomillashtirilmoqda. Keyingi yillarda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining «Tadbirkorlik faoliyati erkinliklari kafolatlari to'g'risida»gi qonuni, «Bank tizimini yanada erkinlashtirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida»gi Prezident Farmoni, kichik va xususiy tadbirkorlikning rivojlanishini rag'batlantirish bo'yicha Respublika muvofiqlashtiruvchi kengashi faoliyatini faollashtirish, fermerlar, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning boshqa subektlarini qo'llab-quvvatlash masalalari bo'yicha Vazirlar Mahkamasi qarorlari, shuningdek ularni mikrokreditlash borasidagi yangi tartiblar respublikada tadbirkorlikni rivojlanishi uchun iqtisodiy muhitni ahamiyatli ravishda yaxshilanishiga olib keldi.

Kichik korxonalarni litsenziyalash, ro'yxatga olish, hisobga qo'yish, hisobot berish va soliqqa tortish shart-sharoitlari soddalashtirilib, buning natijasida tadbirkorlik muhitining yaxshilanishi ta'minlandi.

Biroq, qayd etish lozimki, yaratilgan qulay shart-sharoitlar natijasida ko'plab yangi kichik biznes korxonalari tashkil etilishi bilan bir qatorda hozirgi iqtisodiy hayotning oqimiga «tusha olmagan» korxonalarning faoliyati tugatilib bormoqda.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida mazkur holatning ro'y berishi qonuniyat doirasida bo'lib, bu nafaqat O'zbekistonda, balki jahonning rivojlangan mamlakatlarida ham kuzatiladi. Masalan, Buyuk Britaniyada yangi tashkil etilgan korxonaning har uchtdan bittasi 2-3 yildan keyin o'z faoliyatini to'xtatsa, ro'yxatga olingandan 5-6 yildan keyin ularning umumiy sonidan faqat 30-35% qoladi. Germaniyada har yili 40 ming atrofida turli kichik korxona va firmalar tashkil etilsa, shu vaqtning o'zida ulardan 20-25 mingi o'z faoliyatini to'xtatadi. Bu avvalom bor kichik tadbirkorlik sektori uchun yangi texnologiyalarni keng miqyosda tatbiq etishdagi qiyinchiliklar, xususiy resurslarning cheklanganligi va raqobat kurashidagi yuqori darajadagi xavf-xatar xosligi bilan izohlanadi.

Respublika iqtisodiyotida xususiy mulkning o'рни va rolini tubdan oshirish, xususiy mulk va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish yo'lidagi to'siq va cheklovlarni bartaraf etish, iqtisodiyotda davlat ishtirokini kamaytirish, yalpi

ichki mahsulotda xususiy mulk, jumladan, chet el kapitali ishtirokidagi ulushini izchil oshirish maqsadida:

tadbirkorlik faoliyatiga noqonuniy aralashish va to'sqinlik qilish, xususiy mulkdorlar huquqlarini buzganlik uchun davlat, huquqni muhofaza qilish va nazorat qiluvchi organlarning mansabdor shaxslari javobgarligini jinoiy javobgarlikka tortish darajasigacha oshirish;

xususiy mulkni himoya qilish kafolatini kuchaytirish, tadbirkorlik faoliyatini tartibga soladigan ma'muriy va jinoyat qonunchiligini liberallashtirish jarayonini davom ettirish;

barcha turdagi ro'yxatdan o'tkazish, ruxsat berish va litsenziyalash, shuningdek, tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshirish bilan bog'liq tartib-taomillarni yanada soddalashtirish;

xususiy mulk va xususiy tadbirkorlikni jadal rivojlantirish uchun zarur shart-sharoit va imkoniyatlar yaratish, ularning moddiy va kredit resurslaridan foydalanishini kengaytirish, biznes muhitni yaxshilash.

2015 yilning 1 iyulidan yakka tartibdagi tadbirkorlarga, faoliyatidan kelib chiqqan holda, har bir yollangan ishchi uchun budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga eng kam oylik ish haqining 50 foizi miqdorida sug'urta badali va yakka tartibdagi ish beruvchi tadbirkor uchun belgilangan soliq stavkasining 30 foizi miqdorida soliq to'lash sharti bilan bir nafardan uch nafargacha ishchini yollash huquqi beriladi.¹

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 327-sonli qaroriga ilovada keltirilgan «Moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotgan va qonunchilikda belgilangan muddatlarda o'zlarining ustav jamg'armalarini shakllantirmagan korxonalarni tugatish tartibi to'g'risida Nizom»da «moliya-xo'jalik faoliyati» atamasi ostida korxonalarning buxgalteriya-moliya, hisob-kitob, tovarga ilova qilinadigan va statistika hujjatlarini yuritgan holda

¹Xususiy mulk, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni ishonchli himoya qilishni ta'minlash, ularni jadal rivojlantirish yo'lidagi to'siqlarni bartaraf etish chora-tadbirlari to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 15 maydagi PF-4725-son Farmoni

mahsulotlar ishlab chiqarish, ishlarni amalga oshirish va xizmatlar ko'rsatish bo'yicha yuridik va jismoniy shaxslar bilan, shu jumladan moliya, soliq, bank, bojxona va boshqa organlar va muassasalar bilan o'zaro munosabatlari tizimi tushuniladi.

Shunga ko'ra, kichik tadbirkorlik subektlari moliya-xo'jalik faoliyatini namoyon etuvchi quyidagi yo'nalishdagi munosabatlarni ajratib ko'rsatish mumkin:

Iqtisodiy sherik va hamkorlar bilan o'zaro munosabatlar:

mol yetkazib beruvchilar;

turli ko'rinishdagi ish bajaruvchi va xizmat ko'rsatuvchilar;

mahsulot xaridorlari (iste'molchilari) va boshqalar.

Tadbirkorlik subektlari faoliyatlarini tartibga soluvchi hamda nazorat qiluvchi muassasalar bilan o'zaro munosabatlar, jumladan:

soliq idoralari;

bojxona idoralari;

moliya tashkilotlari;

bank muassasalari va boshqalar.

Kichik tadbirkorlik subektlari moliya-xo'jalik faoliyatining o'ziga xos xususiyatlari eng avvalo tadbirkorlik faoliyatining iqtisodiy tabiatini belgilab beruvchi jihatlar orqali namoyon bo'ladi. Shu o'rinda O'zbekiston Respublikasi «Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida»gi qonunining 9.3-moddasida «Tadbirkorlik faoliyati (tadbirkorlik) - tadbirkorlik faoliyati subektlari tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladigan, tavakkal qilib va o'z mulkiy javobgarligi ostida daromad (foyda) olishga qaratilgan tashabbuskor faoliyat»deb belgilab berilgan ta'rifga batafsil to'xtab o'tish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Mazkur ta'rifning o'zida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikda yanada kuchliroq namoyon bo'luvchi muhim jihatlar ko'rsatib o'tilgan bo'lib, ayni paytda ularning korxona moliya-xo'jalik faoliyatiga ta'siri ahamiyatli hisoblanadi:

Tavakkalchilik. Tavakkalchilik - biznesning birinchi talabi bo'lib, u yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xavf-xatarga qaramay amalga oshiriladigan faoliyatdir. D.P.Alginaning fikriga ko'ra tavakkalchilik go'yoki tanlash majburiy bo'lgan sharoitda noaniqlikni bartaraf etish bilan bog'liq faoliyatdir.

Shu o'rinda ta'kidlash kerakki, tavakkalchilik biznesning talabi va muvaffaqiyat garovi bo'lishiga qaramay, har qanday tavakkalchilik ham doimo o'zini oqlayvermaydi. Shunga ko'ra, ko'p hollarda asossiz ravishda qilingan tavakkalchilik tadbirkorlik faoliyatining to'xtatilishiga sabab bo'ladi.

Mulkiy javobgarlik. Mulkiy javobgarlik - bu tadbirkor tomonidan iqtisodiy resurslar - xom ashyo va materiallar, ishlab chiqarish vositalari, ish kuchi va tadbirkorlik qobiliyatidan foydalanganligi uchun har bir resurs egasi, sheriklar, ishtirokchilar, kreditorlar va umuman jamiyat oldidagi javobgarlikdir. Har qanday, hattoki oz miqdordagi iqtisodiy muvaffaqiyatsizlik uchun ham qaysidir ko'rinishda tadbirkor tomonidan javob berish sifatida qoplanishi, tovon to'lanishi lozim.

Yuqorida qayd etilgan O'zbekiston Respublikasi «Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida»gi qonunining 9.9-moddasida tadbirkorlik faoliyatlari subektlari uchun belgilab berilgan. Mulkiy javobgarlik tadbirkorning o'z faoliyati uchun mas'uliyatini oshiradi, uning ko'r-ko'rona haraqat qilish oqibatida sinishi holatlarini oldini oladi. Shu bilan bir qatorda, mulkiy javobgarlik tamoyilining amal qilishi natijasida, aksariyat hollarda tadbirkorning moliyaviy holati mushkullashishi ham mumkin.

Tashabbuskorlik. Tashabbuskorlik - tadbirkorlik faoliyati asosidagi eng muhim jihatlardan biridir. Har qanday tadbirkorlik hatti-haraqatining negizida tashabbus yotadi. Jamiyat ehtiyojlarini qondirish orqali daromad olish uchun, eng avvalo, tadbirkor ishlab chiqarish omillarini topish va ularni o'zaro biriktirish tashabbusini o'z qo'lga olishi darkor. O'z vaqtida va aniq ravishda ko'rsatilgan tashabbuskorlik - biznes muvaffaqiyatining garovi hisoblanadi. Biroq, tashabbuskorlikning ham o'z javobgarligi, mas'uliyati mavjud. Har qanday muvaffaqiyatsizlik uchun javobgarlik birinchi navbatda uning tashabbuskori

zimmasida bo'ladi. Shunga ko'ra, kichik tadbirkorlikda mulk egasi va tadbirkorlikning bir shaxsda namoyon bo'lishi aksari hollarda tashabbuskorlikning faoliyat natijalari bilan bog'liqligini yanada kuchaytiradi.

Odatda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarining moliyaviy-xo'jalik faoliyatlariga ta'sir qiluvchi omillar to'g'risida so'z borganda birinchi navbatda subektiv omillar ko'rsatiladi. Chunki, ular o'z xususiyatlariga ko'ra alohida e'tibor va shart-sharoit taqozo etuvchi soha hisoblanadi.

Biroq, ko'pchilik holatlarda kichik biznes uchun maxsus shart-sharoitlarni yaratish o'rniga, aksincha, uning rivojlanishida turli sun'iy to'siqlar barpo etiladi. Jumladan:

kichik tadbirkorlik subektlarini ro'yxatdan o'tkazishdagi rasmiyatchilik, to'rachilik va ta'magirlik holatlarining mavjudligi;

mahalliy budjetni mablag' bilan ta'minlash va aholini ish bilan ta'minlashda majburiy tazyiqlarning o'tkazilishi;

ba'zi holatlarda qonunda ko'zda tutilmagan faoliyat turlari uchun ham litsenziya olishning talab qilinishi;

kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subektlaridan a'zolik ko'ngilli bo'lgan tashkilotlarga majburiy tartibda a'zo bo'lishning talab qilinishi va hokazo.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqqan holda, shuni ta'kidlash mumkinki, kichik biznes korxonalari moliya-xo'jalik faoliyatining tugatilishiga ko'plab subektiv omillar bilan bir qatorda, ularning iqtisodiy tabiatidan kelib chiquvchi obektiv omillar ham ahamiyatli ta'sir ko'rsatadi. Quyida biz kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatining iqtisodiy tabiatidan kelib chiquvchi, ayni paytda uning beqarorligini kuchaytiruvchi, aksari hollarda uning tugatilishiga sabab bo'luvchi xususiyatlarga to'xtalib o'tamiz.

Kichik tadbirkorlik subektlarining moliyaviy-xo'jalik faoliyatidagi tavakkalchilikning yuqori darajasi. Yuqorida ta'kidlanganidek, tavakkalchilik - tadbirkorlikning dastlabki shartlaridan biri hisoblanadi. Biroq, hayotiy tajribaning ko'rsatishicha, iqtisodiy subektning xo'jalik yuritish miqyosi qanchalik kichrayib borgan sari uning asoslanmagan tavakkalchiligi shunchalik darajada oshib boradi.

Yapon mutaxassislarining fikriga ko'ra, xo'jalik faoliyatidagi tavakkalchilik tufayli kichik firmalarda muvaffaqiyatsizlikka uchrash holati yirik firmalarga qaraganda 15-20 baravar ko'proq kuzatilar ekan. Bu o'rinda obektivlik nuqtai nazaridan shuni ta'kidlash joizki, kichik tadbirkorlik sohasidagi iqtisodiy xavf-xatar, tavakkalchilik odatda yuqori bo'ladi, shunga ko'ra, yirik kompaniyalarga nisbatan kichik korxonalarning «hayotiy sikli» qisqaroq bo'ladi. Xatto sanoat jihatidan rivojlangan mamlakatlarda ham kichik korxonalar bir qator qiyinchiliklarga duch keladilar.

Kichik tadbirkorlik subektlari faoliyatini bozor konyunkturasiga bog'liqligining kuchliligi. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik odatda mahalliy hudud doirasida faoliyat ko'rsatadi. Ustuvor ravishda mahalliy resurslardan foydalangan holda mahalliy bozorga mahsulot va xizmat taklif etish - bu sohaning ramziy sifatlaridan biri hisoblanadi. Shunga ko'ra, ishlab chiqarishni tashkil etish va uning natijalarini sotishda kichik va o'rta korxonalarning tanlov imkoniyatlari bir qadar cheklangan bo'ladi. Tanlash imkoniyatining cheklanganligi esa o'z navbatida bozor konyunkturasi - resurslar talab va taklifi, ular narxining o'zgarishi, mahsulot sotish bozoridagi o'zgarishlarga bog'liqlikni yanada kuchaytiradi.

Kichik korxonalarda xo'jalik mablag'larining hajm jihatdan ahamiyatsizligi. Tadbirkorlik subektlarining moliyaviy-xo'jalik faoliyatlari aksariyat hollarda ularning moliyaviy mablag'lar bilan ta'minlanganlik darajasiga bog'liq bo'ladi. Korxonaning strategik va taktik ahamiyatdagi faoliyatini rejalashtirish va amalga oshirishda moliyaviy resurslar bilan ta'minlanganlik bosh omil sifatida baholanadi. Bu borada yirik korxonalarda ma'lum barqarorlik kuzatilsa, kichik korxonalarning ahamiyatli qismi doimiy moliyaviy taqchillikni boshidan kechiradi. Bu tabiiy hol bo'lib, korxonalarning «hayoti»dagi rivojlanish xususiyatlari bilan izohlanadi. Korxona mablag'ining miqdoran ahamiyatli bo'lmasligi o'z navbatida uni boshqarishdagi ma'lum muammolarni yuzaga chiqaradi va ularning hal etilmasligi korxona faoliyatining to'xtab qolishiga olib kelishi mumkin.

Maxsus, ixtisoslashgan boshqaruv tuzilmasining mavjud emasligi. Odatda, yirik ishlab chiqarishdan farqli o'laroq, kichik va ba'zi hollarda o'rta korxonalarda maxsus boshqaruv tuzilmasi amal qilmaydi. Aksincha, har bir faoliyat yo'nalishi (mahsulot ishlab chiqarish texnologiyasi, sifati, uni sotish, marketing, moliyaviy masalalar va hokazo) bo'yicha ixtisoslashgan boshqaruvchi-mutaxassislarning vazifalari yagona shaxs - korxona rahbari- tadbirkorda uyg'unlashadi. Aksariyat hollarda mayda tadbirkor boshqaruv vazifasi bilan birga bevosita ishlab chiqarish faoliyatida ishtirok etish vazifasini ham qo'shib olib boradi. Bu jihatlar bir tomondan ijobiy natijalar, ya'ni boshqaruvda iyerarxiyaning bo'lmasligi sababli xo'jalik faoliyati to'g'risida muntazam axborotga ega bo'lish, yechim va qarorlarini qabul qilish tezkorligini oshirish, ularning bajarilish samaradorligini ta'minlanishiga olib keladi.

Odatda raqobat kuchli bo'lgan soha va tarmoqlarda faoliyat ko'rsatishi. Ma'lumki, tarmoqda yakkahukmronlik mavqeini qo'lga kiritish korxonalardan bir qator talablarning bajarilishini taqozo etadi. Bular jumlasiga yo hukumat tomonidan beriladigan litsenziya va boshqa shu kabi huquqlarni qo'lga kiritish, yoki yuqori texnika va texnologiyalarga, ishlab chiqarish vositalariga ega bo'lish, yoki mulkiy huquq egasi bo'lish kabi shartlarni kiritish mumkin. Shunga ko'ra, aksariyat hollarda bunday shartlarga ma'lum sabablarga ko'ra javob bera olmaydigan kichik va o'rta korxonalar tarmoqqa kirish bir qadar erkin bo'lgan faoliyat turlari bilan shug'ullanadilar. Tarmoqqa kirish erkinligi esa, o'z-o'zidan ma'lumki, undagi ishtirokchilarni ko'paytirish orqali raqobatning keskin bo'lishiga sharoit yaratadi. Shuning uchun, hatto iqtisodiyoti barqaror bo'lgan mamlakatlarning kichik biznes sohasida ham faol xatti-harakat kuzatiladi.

Moliyaviy jihatdan imkoniyatlarining cheklanganligi. Ko'plab mamlakatlarda, ayniqsa o'tish davri iqtisodiyoti mamlakatlarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni moliyalashtirish muammosi keskin bo'lib, odatda ularni kreditlash bank muassasalari uchun foydasiz hisoblanadi. Bu holat obektiv asoslar orqali izohlanib, kichik va o'rta korxonalarda ko'pincha kreditni ta'minlash uchun aktivlar yetishmaydi, bu sohada bankrotlikning salmoqli qismi ro'y beradi.

Bundan tashqari, banklar uchun kichik biznes va xususiy tadbirkorlik loyihalarini moliyalashtirish yirik korxonalarga kredit berishga qaraganda ancha qattaroq operatsion sarf- xarajatlarni keltirib chiqaradi. Shunga ko'ra, ular aksari hollarda qayta moliyalash foizining o'zgarganligi, kreditning qaytarilmaslik havfining kuchliligi, shuningdek, qarzga bo'lgan ehtiyojning yuqoriligini bahona qilib, kichik tadbirkorlarga kredit berishdan bosh tortadilar. Mabodo qarz berilgan taqdirda ham asoratga soluvchi foizlar evaziga beradilar.

Kichik biznes sohasi faoliyat natijasini oldindan to'liq belgilab bo'lmilik. Kichik firmalar uchun faoliyatni rejalashtirish jiddiy muammo tug'diradi. Ularning faqat ma'lum qismigina ishlab chiqarishni rejalashtirishni amalga oshirsa, strategik rejalashtirishni yanada ozrog'ida kuzatish mumkin. Natijada ular ko'pincha malakali ishchi kuchiga bo'lgan yetishmovchilikka duch keladilar, iqtisodiy muhitning holatiga o'ta sezgir bo'ladilar: agar inflyatsiya tufayli xarajatlarda darajasi daromadlardan oshib ketsa, firma inqirozga yuz tutadi.

Kichik biznesning asosiy resurslar taqchilligi sharoitida amal qilishi. Kichik biznes korxonasi amal qiluvchi mehnat bozorida jiddiy mintaqaviy va tarmoqqa oid nomutanosibliklar ko'zga tashlanadi. Birinchidan, mehnat resurslari harakatchan emas. Mehnat resurslari darajasining mazkur sifat jihatidan pastligi bir qator iqtisodiy, huquqiy, moliyaviy va tashkiliy omillarning mavjudligi bilan izohlanadi. Ikkinchidan, ish kuchining nisbatan arzonligi tufayli olish mumkin bo'lgan samara ular malakasining yetarli emasligi oqibatida yo'qolib ketadi. Kichik tadbirkorlikning rivojlanishiga ayniqsa bilimli marketolog va iqtisodchilarning yetishmasligi qattiq ta'sir ko'rsatadi. Kichik biznes uchun axborot bozori tartibsiz rivojlanadi va ma'lumotlarning yuqori sifatlilik, dolzarbligi hamda ular narxlarining darajasi jihatidan iste'molchilarni qoniqtirmaydi. Mayda tadbirkor ma'lumotlarni norasmiy manbalar (shaxsiy aloqalar, tanish-bilishlar) hamda matbuot va reklama materiallari asosida tuzilgan ma'lumotlar bazasidan oladi.

II-BOB. MAMLUKATIMIZDA YANGI ISH O‘RINLARINI TASHKIL ETISH ORQALI AHOLINI ISH BILAN TA‘MINLASH HOLATI

2.1. O‘zbekistonda aholining ish bilan ta‘minlanganligining amaldagi holati tahlili

Aholi bandligini ta‘minlash jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining eng muhim shartlaridan biri hisoblanadi va u iqtisodiyotda alohida ahamiyatga ega.

O‘zbekistonda aholini ish bilan ta‘minlashni yanada yaxshilash va uning farovonligini oshirishning eng muhim yo‘nalishi sifatida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, xizmat ko‘rsatish va kasanachilik sohalarini qo‘llab-quvvatlash va rivojlantirishni rag‘batlantirish, ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmani yanada rivojlantirish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda.

Bugungi kunda mamlakatimizda aholini ish bilan ta‘minlash bo‘yicha amalga oshirilayotgan tarkibiy o‘zgarishlar quyidagilardan iborat:

1. Aholining ish bilan bandligi tarkibiy tuzilmasini takomillashtirish hamda ishsiz aholini yangi, mehnat bozorida raqobatdosh kasb-hunarlariga o‘rgatish.

2. Ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik jihatdan qayta jihozlash, ayniqsa, tarkibiy o‘zgartirish va diversifikatsiya masalalariga e‘tiborni kuchaytirish. Bu yangi ish o‘rinlari yaratish bilan bir qatorda ichki va tashqi iste‘molga mo‘ljallangan yangi mahsulotlar ishlab chiqarish va xizmatlar ko‘rsatishni ham ko‘zda tutadi.

3. Ish bilan bandlikka ko‘maklashuvchi markazlar faoliyatini takomillashtirish, bunda, eng avvalo, ushbu markazlar tuzilmasini maqbullashtirish, global inqiroz sharoitida ustuvor chora-tadbirlarni belgilab olish, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish vazifalaridan kelib chiqqan holda, aholini ish bilan ta‘minlash uchun ajratilayotgan moliyaviy mablag‘larni oqilona taqsimlash chora-tadbirlarini amalga oshirishni talab etadi.

Davlat statistika qo‘mitasining ma‘lumotlariga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasida aholi va mehnat resurslari soni muntazam ko‘payib bormoqda.

2.1.1-jadvaldan ko‘rinib turganidek, 2010-2014 yillarda mamlakatimizda aholi soni - 10,6 foizga foizga o‘sgan.

2.1.1-jadval

O‘zbekiston Respublikasida aholi soni va mehnat resurslari tarkibi dinamikasi (ming kishi hisobida)

Kursatkichlar	Yillar					2014 yilda 2010 yilga nisbatan uzgarishi	
	2010	2011	2012	2013	2014	+>-	%
Axoli soni	29123,4	29555,4	29993,5	30492,8	31022,5	1899,1	106,5
<i>shundan:</i>							
Mexnat yoshidagi mexnatga layokatlilar	17804,7	18184,6	18517,6	18814,0	19044,1	1239,4	106,9

Manba O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlari asosida tuzilgan

Yurtimizda aholi soni yiliga o‘rtacha 500-550 ming kishiga ko‘paymoqda. Tahlillar esa 2014 yilda 2010 yilga nisbatan aholi sonining 1899,1 ming kishiga ko‘payganini ko‘rsatmoqda. Mazkur holat O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011 yil 14 martdagi “Aholi sonining tanlama statistik kuzatuvini tayyorlash va o‘tkazish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 71-sonli Qaroriga asosan mamlakatimizning har bir tumani va shahrida aholi sonining 10 foizini qamrab olgan holda o‘tkazilgan aholi sonining tanlama statistik kuzatuvida 642,5 mingta kishining mexanik ko‘paygani aniqlangani bilan bog‘liq.

Shu bilan birga, ta’lim olayotgan yoshlarning soni yildan-yilga oshib bormoqda. Chunki, mamlakatimizda ta’limni rivojlantirishga qaratilgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning amalga oshirilishi natijasida yangi qurilayotgan akademik litsey va kasb-hunar kollejlariga o‘quvchilarning jalb etilishi iqtisodiy nafaol aholining o‘rishiga bevosita ta’sir qilmoqda.

Yurtimizda mavjud mehnat resurslaridan oqilona foydalanish maqsadida quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirishga alohida e'tibor qaratilgan: - qishloq xo'jaligidan tashqari tarmoqlarda yangi ish joylarini yaratish;

- mehnat qo'llaniladigan amaldagi mintaqalarni texnik qayta jihozlash, modernizatsiyalash va qayta ta'mirlash;

- ishlab chiqarishga xorijiy sarmoyalarni jalb qilish;

- yangi yerlarni o'zlashtirish;

- qayta ishlash sanoati, xizmatlar ko'rsatish va shaxsiy mehnat faoliyati ko'lamini kengaytirish;

- kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash;

- aholi bandligining yangi shakllarni joriy etish va o'zini o'zi ish bilan ta'minlashni rag'batlantirish;

- ishsizlarni kasbga o'qitish, qayta o'qitish va malakasini oshirish.

Yangi ish o'rinlarini tashkil etish, iqtisodiyot tarmoqlari tarkibini diversifikatsiya qilish, malakali mutaxassislar tayyorlash va, shuningdek, 12 yillik majburiy ta'lim tizimiga o'tish borasida ko'rilgan chora-tadbirlar aholining bandlik darajasini yanada oshirish imkonini berdi (2-jadval).

2010-2014 yillarda O'zbekiston Respublikasida ish bilan band bo'lgan aholi soni 1190 ming kishiga yoki 10,2 foizga o'sgan. Olib borilgan tahlillar barcha hududlarda ish bilan band aholi sonining ortganini ko'rsatdi. Jumladan, o'tgan 5 yil davomida band aholi sonining o'sish sur'ati Andijon (10,2 foiz), Jizzax (12,2 foiz), Qashqadaryo (14 foiz), Namangan (14,9 foiz), Samarqand (14,9 foiz), Surxondaryo (14,9 foiz) va Xorazm viloyatlarida (11,8 foiz) mamlakatimizdagi o'rtacha ko'rsatkichidan yuqori, qolgan hududlarda esa past bo'lgan.

2.1.2-jadval

O‘zbekiston Respublikasida ish bilan band aholi soni dinamikasi (ming kishi hisobida)


Xududlar	Yillar					2014 yilda 2010 yilga nisbatan uzgarishi	
	2010	2011	2012	2013	2014	+G	foiz
Korakalpoqiston Respublikasi	580,8	590,0	600,2	610,5	621,0	40,2	106,9
viloyatlar:							
Andijon	1112,0	1144,7	1176,3	1210,7	1245,0	129	102,9
Buxoro	768,1	784,7	804,4	818,4	823,2	55,1	107,1
Jizzax	381,6	392,4	402,9	415,1	428,4	46,8	112,2
Kashkadaryo	971,6	1003,7	1036,6	1072,3	1108,5	136,9	114,0
Navoiy	407,9	413,4	418,5	419,6	420,6	12,7	103,1
Namangan	815,3	841,7	872,1	903,5	937,3	122	114,9
Samarkand	1229,9	1269,8	1314,4	1357,3	1402,5	172,6	114,9
Sirdaryo	319,9	327,5	334,8	342,3	349,6	29,7	109,2
Surxondaryo	784,4	817,7	843,0	871,2	901,5	117,1	114,9
Toshkent	1155,4	1183,4	1215,5	1244,9	1272,4	117	110,1
Fargona	1340,4	1367,6	1398,8	1431,1	1462,8	122,4	109,1
Xorazm	606,7	625,2	643,4	660,4	678,6	71,9	111,8
Toshkent sh.	1153,8	11,56,7	1162,2	1165,3	1166,5	12,7	101,1
Respublika buyicha	11628,4	11919,1	12223,8	12523,3	12818,4	1190	110,2

Manba O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlari asosida tuzilgan

Mehnat resurslari balansiga ko‘ra, ish bilan band aholi tarkibi iqtisodiyotning rasmiy sektorida bandlar, iqtisodiyotning norasmiy sektorida bandlar va mehnat faoliyatini amalga oshirish uchun chet elga ketgan shaxslardan iborat. Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, yuqoridagi uch toifadagi band bo‘lgan aholi soni ortib bormoqda

2.1.1-diagramma

O'zbekiston Respublikasida ish bilan bandlik tarkibining taqsimoti, ming kishi (2014 y.) ¹



2.1.1-diagrammadan ko'rinib turibdiki, 2011-2014 yillar davomida iqtisodiyotning Ras sektorida band bo'lganlar soni – 9 foizga kamaygan, nodavlat sektorda band bo'lganlar soni – 10.2 foizga, xususiy mulkchiligiga band bulganlar soni esa 10.3 foizga ko'paygan. Biroq olib borilgan tahlillar ish bilan band bo'lganlar tarkibida o'zgarishlar yuz berganini ko'rsatadi. Xususan, 2011 yilda iqtisodiyotning davlat sektorida band bo'lganlar ulushi 19,9 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2014 yilga kelib bu raqam 18,1 foizga pasaygan. Vaholanki, bu davrda iqtisodiyotning nodavlat sektorida band bo'lganlar soni 80,1 foizdan 81,9 foizga oshgan, xususiy mulkchiligiga band bulgan shaxslar ulushi esa 69,5 foizdan 71,6 foizga kupayganini ko'rishimiz mumkin.

Norasmiy bandlik bevosita mamlakatda yashirin iqtisodiyotning avj olishiga sabab bo'ladi. Chunki:

- norasmiy bandlik hech qanday huquqiy va iqtisodiy asosga ega emas;
- mazkur sektorda band bo'lganlarning o'z mehnat faoliyati orqali ertangi kunda ham daromad olishlari kafolatlanmagan;
- norasmiy band bo'lganlar mehnati ijtimoiy himoyalangan va muhofazalanmagan;

¹Manba: O'zbekiston Respublikasi Mehnat vazirligi ma'lumotlari

- meyoriy-huquqiy hujjatlarning qabul qilinishi, ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlar va infratuzilmalarning o'zgarishi natijasida ushbu sektorda band bo'lganlar o'z ish joylarini yo'qotib qo'yishlari mumkin;

- ushbu bandlik mavsumiy va vaqtinchalik xarakterga ega bo'lib, ob-havo va iqlimning o'zgarishi hamda mavsumning almashinuvi oqibatida fuqarolar osongina ishsiz bo'lib qolishadi;

- bandlikning mazkur ko'rinishidan respublika va mahalliy budjetga hech qanday soliq va majburiy to'lovlar amalga oshirilmaydi;

- budjetdan pensiya va ijtimoiy nafaqalar to'lash bo'yicha o'ziga xos muammolarni keltirib chiqaradi, ya'ni pensiya jamg'armasining daromadlariga nisbatan uning xarajatlari yuki oshib ketadi;

- shuningdek, mamlakat iqtisodiyoti uchun eng muammoli hisoblangan ishsizlikning yashirin va mavsumiy turlari aynan norasmiy bandlik sababli vujudga keladi.

Fikrimizcha, yashirin iqtisodiyotda band bo'lgan xodimlarni rasmiy ish bilan bandlikka o'tkazish tadbirlarini ishlab chiqish zarur. Buning uchun, norasmiy, qonunan taqiqlanmagan mahsulot ishlab chiqarayotgan yoki xizmat ko'rsatayotgan yakka tadbirkorlarni o'zlari to'laydigan soliq hisobidan pensiya jamg'armasiga to'lovlar amalga oshirilib, ularning faoliyati mehnat daftarchalarida qayd qilinishi lozim. Norasmiy tarzda, og'zaki kelishuv asosida ishlaydigan yollanma ishchilar faoliyatini rasmiy ish bilan bandlikka o'tkazish uchun ish beruvchi va yollanma ishchi o'rtasida tuziladigan kelishuv yozma shaklda mehnat muassasalari xodimlari ishtirokida tuzilishi kerak. Bunda bir martalik ishga joylashtirish tadbirlari yaxshi yo'lga qo'yilishi lozim. Asta-sekinlik bilan ish beruvchi bilan ishchi o'rtasida norasmiy kelishuv asosidagi ishlarni kamaytirish, bunday ishlarni amalga oshirayotgan ish beruvchi va xodimlarni javobgarlikka tortish ishlarini yo'lga qo'yish zarur. Bu tadbirlar bir martalik norasmiy ishlarni bajarishda xodim va ish beruvchi o'rtasidagi turli nizolarni kamaytiradi.

2.2. Ish o‘rinlarini tashkil etish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ahamiyati

Mamlakatimizda yangi ish o‘rinlarining qariyb yarmi kichik korxonalar, mikrofirmalar tashkil etish, yakka tartibdagi tadbirkorlikni, xizmat ko‘rsatish va servis sohasini yanada rivojlantirish, pudrat asosidagi qurilish, shu jumladan, uy-joylarni ta‘mirlash va rekonstruksiya qilish ishlari ko‘lamini kengaytirish hisobidan yaratilmoqda.

Yurtimizda tashkil etilgan ish o‘rinlarining qariyb yarmi kichik korxonalar va mikrofirmalarni tashkil qilish, yakka tartibdagi tadbirkorlikni hamda uy mehnatining barcha shakllarini rivojlantirish hisobidan yaratilganidan dalolat beradi.

2015 yilda ish o‘rinlari tashkil etish va aholi bandligini ta‘minlash dasturining quyidagi asosiy yo‘nalishlari bo‘yicha aniq chora-tadbirlarning amalga oshirilishi tasdiqlangan prognoz parametrlarining bajarilishiga ko‘maklashdi:

a) 2011-2015 yillarda sanoatni rivojlantirish ustuvorliklari to‘g‘risidagi dasturning, iqtisodiyot tarmoqlarini modernizatsiyalash, texnik va texnologik qayta jihozlash dasturlarining, 2015 yilga mo‘ljallangan Investitsiya dasturining, 2011-2015 yillarda ishlab chiqarishni mahalliyashtirish dasturining, ijtimoiy-iqtisodiy va industrial rivojlantirish hududiy dasturlarining, hududiy investitsiya dasturlarining amalga oshirilishini davom ettirish 45,6 mingta ish o‘rni tashkil etish imkonini berdi.

Yuqorida qayd etilgan dasturlar doirasida investitsion loyihalarni amalga oshirishni jadallashtirishga va shunga muvofiq yaratilayotgan ish o‘rinlarining ko‘payishiga sanoat korxonalariga berilgan imtiyozlar va preferensiyalar, ya‘ni mamlakatda ishlab chiqarilmaydigan, chetdan olib kiriladigan qurilmalar, materiallar va butlovchi qismlar uchun 2016 yilning 1 yanvariga qadar bojxona to‘lovlaridan ozod qilishga, sanoatning bazaviy sohalaridagi investitsiya loyihalari bo‘yicha loyihagacha va loyiha hujjatlarini ishlab chiqish uchun imtiyozli kreditlar olishga, investitsiya loyihalari bo‘yicha «tayyor holda topshirish» shartnomalari asosida texnik iqtisodiy asoslari tasdiqlanadigan bir

bosqichli tartibda loyiha hujjatlarini tayyorlashga doir imtiyozlar va preferensiyalarning berilganligi va boshqalar jiddiy ta'sir ko'rsatdi;

b) kichik biznesni jadal rivojlantirish uchun imtiyozli soliq sharoiti yaratilishini ta'minlash siyosati amalga oshirilishining davom ettirilishi, xususan, kichik biznes subyektlarining bo'shab qolgan mablag'larini ishlab chiqarish faoliyatini rivojlantirishga yo'naltirish imkonini berdi, bu esa 281 mingta ish o'rni, yakka tadbirkorlikda 88 mingta ish o'rni tashkil etilishini ta'minladi.


Kreditlar ajratish orqali qo'llab-quvvatlashning kengaytirilishi tadbirkorlik subyektlarining ish o'rinlari tashkil qilish bo'yicha moliyaviy imkoniyatlarini sezilarli darajada oshirdi. 2014 yilda tijorat banklari tomonidan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga ajratilgan kreditlar hajmi. 9 trillion so'mdan ortiq yoki 2013-yilga nisbatan 1,3 barobar ko'p, shu jumladan, 2 trillion so'mga yaqin miqdordagi mikrokreditlar ajratildi.

Mamlakatda kichik biznes subyektlari ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, shuning natijasida qo'shimcha yuqori unumli ish joylari yaratish uchun ularni imtiyozli moliyalashtirish muammosini hal etish talab qilinadi. Tahlillar natijasida ro'yxatdan o'tgan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik ayrim subyektlarida aylanma mablag'larining yetishmasligi sababli faoliyat ko'rsatmayotganlari aniqlandi. Bu ularning o'z mablag'larining yetishmasligi, bank kreditlarini jalb qilish uchun ishonarli garovga ega emasliklari bilan izohlanadi¹.

Kichik biznes sohasida yaratilayotgan ish o'rinlarining salmoqli qismi xizmat ko'rsatish va servis sohasi ulushiga to'g'ri keladi. Ko'p hollarda aholining ko'payishi natijasida mehnat bozorida yuzaga kelgan yuqori demografik bosimga qaramasdan, kichik biznesning jadal rivojlanishi tufayli band bo'lgan aholi sonining jadal sur'atlarda oshib borishini ta'minlashga erishildi, bunda mamlakat umumiy aholisining soniga nisbatan ham band bo'lganlar salmog'i ko'paydi;

¹Manba: Pardayev M.Q., Mamasoatov T.X., Murotqobilov A.A., Rahimov H.A. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik: rivojlanish muammolari va yechimlari. Monografiya. – T.: «Navro'z» nashriyoti, 2013. – B.60.

2.2.1-diagramma

Aholi bandligining kichik biznes va tadbirkorlik bo'yicha ko'rsatkichlari¹

Respublikamizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasining ustuvor, yuqori sur'atlarda barqaror rivojlantirilishi bugungi kunda mazkur sohaning 10,0 mln.dan ortiq kishini ish bilan ta'minlashiga xizmat qilmoqda. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarida ish bilan band bo'lganlarning 7,3 mln. nafarga yaqini xususiy tadbirkorlik, 2,3 mln. nafari kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri keladi.

Jami ish bilan bandlar tarkibida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikda ish bilan bandlarning salmog'i barqaror sur'atlar bilan o'sishda davom etmoqda

2014 yili bu ko'rsatkich respublika bo'yicha o'rtacha 77,2 foizni tashkil qildi. Ayrim viloyatlarda esa jami ish bilan bandlarning 80 foizdan ortig'i bugungi kunda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikda ish bilan band (Andijon - 84,0, Samarqand - 83,6, Namangan -82,7, Jizzax - 81,7) ekanligini qayd etishimiz lozim.

¹ Manba O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida tuzilgan

2.2.1-jadval


O‘zbekiston Respublikasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasida ish bilan band bo‘lganlar salmog‘i, %

Hududlar	2010 y.	2011 y.	2012 y.	2013 y.	2014 y.
O‘zbekiston Respublikasi	74,3	75,1	75,6	76,7	77,2
jumladan:					
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	71,2	72,3	71,0	73,7	74,5
Andijon viloyati	81,2	82,4	82,8	83,3	84,0
Buxoro viloyati	76,3	76,8	77,3	78,5	78,6
Jizzax viloyati	78,0	79,1	80,3	81,0	81,7
Qashqadaryo viloyati	74,9	79,1	77,0	77,9	78,4
Navoiy viloyati	55,9	56,0	58,8	59,4	59,4
Namangan viloyati	78,4	80,2	80,7	81,7	82,7
Samarqand viloyati	83,4	82,3	81,8	83,2	83,6
Surxondaryo viloyati	75,0	76,3	77,5	79,0	79,3
Sirdaryo viloyati	79,2	78,5	77,5	79,0	79,4
Toshkent viloyati	73,0	73,4	74,2	75,3	76,1
Farg‘ona viloyati	77,5	76,3	77,3	78,5	79,4
Xorazm viloyati	78,1	79,6	79,1	78,5	79,4
Toshkent shahri	57,0	57,1	57,3	57,5	57,5

Manba O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan yaratilgan. [http: // www.stat.uz](http://www.stat.uz)

Keyingi 20 yil mobaynida kichik biznes sohasida ko‘plab yangi ish joylari tashkil etilib, qariyb 20 baravarga ortdi. 2014 yilda ish joylarini tashkil etish va aholini munosib ish bilan bandligini ta’minlash bo‘yicha davlat va mintaqaviy dasturlarning amalga oshirilishi natijasida qariyb 980 ming kishi ish bilan ta’minlandi. Bu borada kichik korxonalar, mikrofirmalar va yakka tartibdagi tadbirkorlikni rivojlantirish evaziga 480 mingdan ortiq, kasanachilikni kengaytirish hisobidan esa 210 mingdan ziyod ish o‘rni tashkil etildi.

2.2.2-diagramma

O'zbekistonda yangi ish joylarini yaratish dinamikasi (ming kishi)¹

v) huquqiy va normativ bazaning yaratilishi, kasanachilikning barcha turlarini, avvalambor, korxonalar bilan birgalikda mehnat shartnomalari asosidagi kasanachilikni, hunarmandchilikni, shuningdek yirik shoxli qoramol boqish va uyda turli xizmatlar ko'rsatishga asoslangan oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish 183,4 ming nafar shaxsni ishga joylashtirish imkoniyatini berdi.

O'tgan davrda 8 mingdan ortiq sanoat, qurilish, transport, aloqa, xizmat ko'rsatish korxonalari kasanachilar bilan ishlab chiqarish va mehnat munosabatlariga kirishdi, bu korxonalar kasanachilar bilan mehnat shartnomalari asosida birlashib 51,6 ming kishi band bo'lishini ta'minladi. Oilaviy tadbirkorlik va hunarmandchilik rivojlantirilishini rag'batlantirish va qo'llab-quvvatlashga doir chora-tadbirlar 131,8 mingta ish o'rni tashkil etishni ta'minlash imkoniyatini berdi;

g) qishloq ho'jaligida ishlab chiqarish samaradorligini sezilarli oshirish, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish va qayta ishlash hajmlarini ko'paytirish, xususan so'nggi uch yil ichida 540 dan ziyod yangi korxonaning ishga tushirilishi, 152 ta yangi mahsulot turlari ishlab chiqarilishining o'zlashtirilishi, va shuning natijasida qishloqda ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning chuqurlashtirilishi, qishloq xo'jaligi va unga kiruvchi barcha tarmoqlar va ishlab chiqarish majmuasini modernizatsiya qilish, fermer va dehqon xo'jaliklarining

¹Manba O'zbekiston Respublikasi Mehnat vazirligining ma'lumotlari // <http://www.mehnat.uz>.

rivojlantirilishi va kengaytirilishi 105,5 mingdan ziyod ish o'rnini tashkil etilishini ta'minladi;

d) ishlab chiqarish, ijtimoiy va bozor infratuzilmasi, transport va kommunikatsiya qurilishining rivojlantirilishi, aholi punktlarini obodonlashtirish ishlarining kengaytirilishi 58,8 mingta ish o'rnini yaratilishiga olib keldi.

Mazkur yo'nalishda ish o'rinlari yaratilishida investitsion loyihalarni amalga oshirayotgan vazirliklar, idoralar va korxonalarga mamlakatda ishlab chiqarilmaydigan, chetdan olib kiriladigan jihozlar, xom ashyo va materiallar, ehtiyot qismlar, butlovchi buyum va uzellar, texnologik hujjatlar va uskunalar uchun 2016 yilning 1 yanvariga qadar bojxona to'lovlaridan ozod bo'lish bo'yicha imtiyozlar beril muhim ahamiyatga ega bo'ldi va shu orqali ishlab chiqarish xarajatlari va tannarxni kamaytirish, bo'shagan mablag'larning salmoqli qismini mehnatga haq to'lash fondiga yo'llash hamda yirik infratuzilma obyektlari qurilishida va qayta qurilishida ish o'rinlari yaratishni ta'minlashga imkon berdi;

e) to'xtab qolgan korxonalarning, shu jumladan, tijorat banklari balansiga olingan bankrot korxonalarning ishlab chiqarish faoliyatini tiklash natijasida 10,7 mingta ish o'rnini tashkil etildi.

Qayd etilgan choralar mamlakatimizdagi ishsizlik darajasini Xalqaro Mehnat tashkilotining metodologiyasida belgilangan meyor darajasida saqlab qolish va ishga joylashishga muhtojlar sonini kamaytirish imkonini berdi.

Xulosa qilib aytganda, mamlakatimizda hududiy bandlik dasturlarining amalga oshirilishi natijasida yaratilgan ish o'rinlari soni ko'paymoqda. Bu esa, o'z navbatida, aholining ish bilan bandligini ta'minlashga yordam beradi.

2.3 Qashqadaryo viloyatida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subektlarining rivojlantirish holati

Bozor iqtisodiyotining hozirgi bosqichida ham ishlangan va o'ta muhim bo'lgan O'zbekiston hududlarida iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish monitoringini muntazam o'tkazib borilishi dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Vaholanki yangi xo'jalik yuritish shakllari sharoitida hududlarda amalga

oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar natijalari, sur'atlari mamlakatda barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashda muhim ahamiyatga egadir. Chunki islohotlarning pirovard natijasi u respublika tarmoq yoki korxona doirasida amalga oshirilishidan qat'i nazar, avvalombor hudud darajasida namoyon bo'ladi.

O'zbekiston hududlarida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish va iqtisodiy islohotlarning monitoringi natijalarining zarurligi qo'yidagilar bilan izohlanadi:

Birinchidan - hududiy milliy siyosatni ishlab chiqishda. Vaholanki, hududlarda mavjud muammolar, ularda erishilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy sohalardagi yutuqlar, kamchiliklar hamda ularning bozor munosabatlariga moslashuvi qay darajada ekanligi to'g'risida to'liq va keng qamrovli tasavvurga ega bo'lmay turib, mamlakat miqyosida to'laqonli iqtisodiy siyosatni ishlab chiqish va amalga oshirish mumkin emas.

Ikkinchidan, hududlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish tahlili natijalari nafaqat respublika darajasidagi boshqaruv tashkilotlari uchun balki, mahalliy xokimiyat vakilliklari uchun ham alohida hududlarni rivojlantirish konsepsiyasini ishlab chiqish zarur.

Uchinchidan esa, hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasi va bozor munosabatlarining shakllanishi bo'yicha guruhlash mamlakat va chet el firmalari, korxonalari, banklari, birjalari uchun o'zlarining u yoki bu hududda kapitalni joylashtirish uchun marketing informatsiyasi uchun analitik ma'lumot bo'lib xizmat qilishi mumkin.

To'rtinchidan, hududlar iqtisodiy monitoringi va reytingni aniqlashda mahalliy xokimiyat vakillari faoliyatining samaradorligini aniqlash imkoniyatini beradi.

Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasini baholashning oddiy usuli bo'lib hududni u yoki bu ko'rsatkich bo'yicha xususiycha respublika ko'rsatkichlari bilan taqqoslash hisoblanadi. Ammo bunday taqqoslash mamlakat umumiy iqtisodiy holatida hudud xaqida umumiy tushuncha berishi mumkin, xolos.

Shuning uchun xam kompleks tahlil qilishni maqsadga muvofiq deb xisoblaymiz. Buning uchun bizning fikrimizcha dastlabki bosqichda 100 ga yaqin

ko'rsatkich (indikator)lar tahlil qilinib, korellyatsion tahlil asosida ularning asosiylari ajratib olinadi va hududlar reytingini aniqlashda bevosita foydalaniladi.

Hududlarda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish va iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish ko'rsatkichlari (indikatorlari) beshta yirik blokda guruxlashtirilgani maqsadga muvofiqdir. Jumladan:

Birinchi blok - hudud real sektorida sanoat, qishloq xo'jaligi va qurilishda sodir bo'lgan o'zgarishlar dinamikasini ko'rsatadi. Hududlarda iste'mol bozori shakllanishining ahamiyatini inobatga olgan holda, sanoat rivojlanishida xalq iste'moli mollari ishlab chiqarishning o'sishi (pasayishi)ni hisobga olish zarur. Tadqiqotni yoki tahlilni yanada chuqurroq amalga oshirish maqsadida real tarmoqda iqtisodiy ko'rsatkichlar tizimi ularning hajmi, miqdori, turi, samaradorlik ko'rsatkichlari o'sishi nuqtai nazaridan kengaytirilishi mumkin.

Ikkinchi blok - asosan mamlakatda va hududda moliyaviy barqarorlikni ta'minlash bilan bog'liq bo'lgan jarayonlarni o'z ichiga oladi. Bunda jumladan, asosiy ko'rsatkichlardan - foyda miqdori, pul emissiyasi, to'lovlar muammolari kabilardir.

Hududlarda ijtimoiy muammolarni yechishning muhim masalalaridan biri ekanligidan kelib chiqqan xolda «Ijtimoiy rivojlanish» uchinchi bloki boshqalarga nisbatan o'zida ko'p ko'rsatkichlarni mujassamlashtirilganligi bilan ajralib turadi. Bular asosan - hisobot davridagi tovar ayirboshlash va pulli xizmatlar hajmi, aholi real daromadlarining o'sishi, ishsizlik darajasi, yangidan tashkil etilgan ish o'rinlari soni va hokazolar.

To'rtinchi blokda hisobot davrida bozor munosabatlarini vujudga keltirishni tasniflovchi ko'rsatkichlar (indikatorlar) tizimi o'z aksini topgan bo'lib, ularning asosiylariga quyidagilarni kiritish mumkin: xususiylashtirish va davlat tasarrufidan chiqarish dasturi topshiriqlarining bajarilishi, hududlarda bozor infratuzilmasi shakllanishi va rivojlanishining real ko'rsatkichlari va kichik biznes va xususiy tadbirkorlik xamda qishloq xo'jaligida turli mulk shakllarining rivojlanishi.

Beshinchi blok bevosita tashqi iqtisodiy faoliyatga bag'ishlanadi. Hududlarning tashqi iqtisodiy aloqalarini baholash asosan eksport hajmi hamda qo'shma korxonalarning eksport mahsulotlarini ishlab chiqarishni kengaytirish orqali amalga oshiriladi.

Ushbu biz tomondan tavsiya qilinayotgan hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish bo'yicha reytingini aniqlash mezonlari bo'yicha ko'rsatkichlar (indikatorlar) tizimi hududlarni xususiyatlaridan kelib chiqqan xolda ustivor ko'rsatkichlari alohida ajratib ko'rsatilishi yoki ularga o'zgartirishlar kiritilishi mumkin.

Hududlar faoliyatini balli baholash va reytingini aniqlash tizimi.

Barcha hisob kitoblar 14 balli shkalada va taqqoslama narxlarda amalga oshiriladi. (hududlar soni bo'yicha) Eng yuqori 14 ball davlat dasturini bajarishda maxsulot ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatkichida oldingi yilga nisbatan yuqori ko'rsatkichga erishgan viloyatga beriladi. Eng past ball past o'sishga erishgan viloyatga beriladi. Xuddi ushbu ballar barcha beshta blok bo'yicha aloxida to'ldirilib, ular umumlashtiriladi. Xuddi shu tariqa barcha hududlarning iqtisodiyotning real sektori, ijtimoiy soxa, tashqi iqtisodiy aloqa, moliyaviy barqarorligi, iqtisodiy islohotlarning borishi holati aniqlanadi va qaysi yo'nalishlarda ularga davlat yordami ko'rsatilishi belgilanadi.

Hudud miqyosida xususiy tadbirkorlikni tahlil qilish va istiqbolini belgilashning bir qator o'ziga xos xususiyatlari mavjud. Ko'pgina ilmiy tadqiqot va maqolalarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivojlanishi xolati mamlakat va viloyat miqyosida o'rganilgan.

2.3.1-jadval

Viloyat tumanlarida (shaharlarida) xususiy tadbirkorlikni tahlil qilishda reyting uslubidan foydalanish tavsiya qilingan.

Ko'rsatkichlar	O'lchov birligi	2011 yil	2012 yil	2013 yil	2014 yil	2014yilda 2011yilga nisb.o'zg.(%)
Jami tashqi savdo aylanmasi	ming dol.	580725,0	750817,8	765440,8	637389,7	109,7
Eksport jami	ming dol.	462268,2	343359,9	335276,6	323384,7	69,9
Import jami	ming dol.	118456,8	407457,9	430164,2	314005,0	265,0
5. 8. Chakana savdo tovar aylanmasi						
Viloyat bo'yicha (amaldagi narxlarida)	mln.so'm	1867158,6	2567645,6	3443725,7	4394279,6	235,3
Davlat korxonalarida	mln.so'm	10875,5	1226,7	1012,8	1472,4	13,5
Nodavlat korxonalari	mln.so'm	1856283,1	1879454,3	3442712,9	4392807,7	236,6
Aholi jon boshiga to'g'ri kelgan chakana savdo (so'm)	mln.so'm	683733,0	902866,2	1171056,5	1500778,6	219

Manba: Qashqadaryo viloyat Mehnat Bosh boshqarmasi ma'lumotlari

2.3.1-jadvalda Viloyatning tashqi savdo aylanmasi 2014 yilda 637389,7 ming dollarni tashkil etib, 2011 yilga nisbatan 109,7 foizga kupaygan. Eksport hajmi ham tahlil qilinayotganyillarda 69,9 foizga kamaygan. Import hajmi esa 265,0 foizga oshgan.

Demak, Viloyatning tashqiiqtisodiy aloqalari keyingi yillarda ancha susaygan. Shu nuqtai nazardan import hajmi oshib,eksport hajmi kamayib ketgan. Shuni xulosa qilish kerakki, tumanda Kichik biznes yaxshi rivojlangan bo'lishiga qaramasdan kichik biznes va xususiy korxonalarning faoliyati ancha pasayib ketganligini ko'rish mumkin.

Sohadagi mavjud muammolarni bartaraf etish bo'yicha quyidagi takliflarni bermoqchimiz:

- Bugungi kunda tadbirkorlikni moliyaviy qo'llab-quvvatlashning muqobil manbasi sifatida bankdan tashqari kredit tashkilotlari (kredit uyushmalari,

mikrokredit tashkilotlari, lizing kompaniyalari va boshqalar) tizimini rivojlantirish lozim;

- Tadbirkorlarga xizmat ko'rsatadigan infratuzilma tashkilotlarini tashkil etish va moddiy texnik bazasini yangilash maqsadlariga imtiyozli kreditlar berishni joriy etish;
- Tadbirkorlik subyektlariga xizmat ko'rsatadigan infratuzilmalar mutaxassislari uchun doimiy malaka oshirish tizimini va ushbu markazlarga malakali kadrlarni jalb qilish mexanizmini yaratish;
- Tadbirkorlarga zarur texnologiyalarni yetkazib berishda lizing xizmatini yo'lga qo'yish kerak deb hisoblaymiz;
- Tijorat banklari tomonidan ijro intizomining buzilishi natijasida mijozlar va boshqa tadbirkorlar ushbu faoliyatdan zarar ko'rishi mumkin bo'lgan holatda banklar javobgarligini oshirish.

Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning kreditlar, xomashyo resurslari, shuningdek, davlat xaridlari tizimidan samarali foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish ularni iqtisodiy faolligini oshirishda muhim omil hisoblanadi.

Buning uchun ularga kreditlar ajratish, birinchi navbatda, investitsiya maqsadlari uchun uzoq muddatli kreditlar ajratish mexanizmlarini yanada takomillashtirish va ularning hajmini oshirish, boshlang'ich kapitalni shakllantirish, mikrokreditlar berish ko'lamini kengaytirishga oid amaliy tadbirlarni davom ettirish zarur.

Viloyat iqtisodiyotida asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar umumiy hajmining 14,8 foizi, qurilish ishlarining 73,9 foizi kichik biznes korxonalari hissasiga to'g'ri keldi.

Kichik biznes subyektlari yuk aylanmasi viloyat avtomobil transporti umumiy yuk aylanmasining 72,5 foizini, umumiy yo'lovchi aylanmasining 81,6 foizini tashkil etdi.

2.3.2-jadval

Viloyat iqtisodiyotining asosiy tarmoqlarida kichik biznesning ulushi

Ko'rsatkichlar	2011 yil	2012 yil	2013 yil	2014 yil	2014 yilda 2011 yilga nisb o'zg. (+;-)
Yalpi hududiy mahsulotda kichik biznesning ulushi	56,2	52,4	51,4	52,5	-3,7
Iqtisodiyotda kichik biznesning sohalar bo'yicha salmog'i					
Sanoat	24,8	9,5	9,0	10,1	-14,7
Qishloq xo'jaligi	99,3	99,4	99,5	99,5	0,2
Investitsiya	26,2	19,8	15,0	14,8	-11,4
Qurilish	65,8	78,0	69,4	73,9	8,1
Savdo	44,3	39,8	35,0	36,0	-8,3
Pullik xizmat	77,9	76,1	61,1	55,3	-22,6
Tashilgan yuk	63,0	67,1	76,6	72,5	9,5
Tashilgan yuk aylanmasi	48,1	82,1	85,7	87,2	39,1
Yulovchi tashish	85,7	80,2	79,4	81,6	-4,7
Yulovchi tashish aylanmasi	82,1	82,4	83,5	87	4,9
Tashqi savdo aylanmasi	13,2	12,6	27,0	43,0	29,8
Eksport	9,0	12,2	18,1	22,7	13,7
Import	28,4	14,2	34,5	57,9	29,5
Kichik biznesda band bo'lgan aholi	74,9	75,1	77,1	77,8	2,9
Kichik biznesga ajratilgan bank kreditlari, mln.so'm	145570,0	216947,1	286480,1	372978,5	227408,5
Ro'yxatga olingan kichik biznes korxonalari (birlik)	18986	20767	20529	20430	1444
Faoliyatko'rsatayotgankichikbizneskorxonalari (birlik)	14503	16656	16686	16087	1584
Yangi tashkil etilgan kichik biznes korxonalari (birlik)	2626	3202	1438	1652	-974
Tugatilgan kichik biznes korxonalari (birlik)	706	1428	1728	1832	1126

Manba: Qashqadaryo viloyat Statistika boshqarmasi malumotlari

Savdo aylanmasi umumiy hajmining 36,0 foizi yoki 1207525,8 mln. so'mi (118,8 foiz) va aholiga pullik xizmat ko'rsatish umumiy hajmining 55,3 foiziyoki 555183,9 mln. so'mi (121,8foiz) kichik tadbirkorlik subektlari hissasiga to'g'ri keladi.

Kichik biznes subektlari tashqi savdo aylanmasi viloyat tashqi savdo aylanmasi hajmining 43,0 foizini tashkil qildi. 2014 yilda kichik biznes subektlari tomonidan 316203,8 ming AQSH dollari (umumiy eksport hajmining 22,7 foizi), miqdorida mahsulot eksport qilindi. Import 246240,7 ming AQSH dollari (umumiy importning 57,9 foizi)ni tashkil qildi.

Viloyat yalpi hududiy mahsulotida kichik biznesning ulushi 52.5 foizni tashkil etib, buko'rsatkich 2011 yilga nisbatan 3.7 foizga kamaygan. Viloyatda yangi tashkil etilgan kichikbiznes korxonalari soni 2014 yilda 1652 tani tashkil etib, 2011 yilga nisbatan 974 tagakamaygan. Faoliyat yurita olmagan kichik biznes korxonalari tugatilgan bo'lib, bu ko'rsatkich2014 yilda 1832 tani tashkil etmoqda.

Hududlarida xususiy tadbirkorlikni rivojlanish darajasini baholash reytingi monitoring o'tkazish orqali amalga oshiriladi. Monitoring asosan har chorak va yilda amalga oshirilib, uning maqsadi tumanlarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojlanishi holatini kuzatish, mahalliy xokimiyat tashkilotlarini to'liq ma'lumotlar bilan ta'minlash, ushbu xususiy tadbirkorlik korxonalarining tumanlar ijtimoiy iqtisodiy jarayonlarini rivojlanishiga ta'sirini aniqlash hamda ularning rivojlanishiga ta'sir qilayotgan sabablarni aniqlashdan iborat.

Monitoringning (reytingning) asosiy vazifalari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

tumanlarda xususiy tadbirkorlik rivojlanishiga baho berish ularning tumanlar ijtimoiy- iqtisodiy taraqqiyotiga ta'sirini aniqlash;

xususiy tadbirkorlik rivojlanishidagi kamchiliklar va ularning rivojlanishiga to'sqinlik qilayotgan sabablarni ochib berish;

xususiy tadbirkorlik rivojlanishidagi asosiy ustuvor jihatlarini asoslash;

xususiy tadbirkorlik rivojlanishiga qaratilgan barcha chora-tadbirlar natijasini baholash;

tumanlarda mavjud iqtisodiy va xom-ashyo resurslaridan kelib chiqqan xolda xususiy tadbirkorlik subektlarini joylashtirish hamda ularni rivojlantirish istiqbolini ilmiy asoslangan dasturlarini ishlab chiqish;

tumanlarda xususiy tadbirkorlik rivojlanishini ta'minlash va ularga mamlakat va chet el kompaniyalari bank va boshqa tashkilotlar sarmoyalarini jalb qilish bo'yicha keng qamrovli tadbirlar ishlab chiqish;

tumanlarda xususiy tadbirkorlik rivojlanishi reytingini aniqlash bo'yicha axborot-tahlil ma'lumotlari tayyorlash.

Monitoring o'tkazish uning asosiy ko'rsatkichlari bo'lib xususiy tadbirkorlik subektlarining barcha ko'rsatkichlari 9 soni mahsulot xajmi, miqdori, qiymati, band kishilar soni, xudud iqtisodiyotidagi tutgan o'rni va boshqalar) o'sish sur'atlari (pasayishi) va baxolash ko'rsatkichlari bo'yicha natijaviy ballari xisobot davri ma'lumotlari asosida xisoblanadi. Masalan, 201 yil 2014 yil bilan taqqoslanib, yoki 2015 yil 1 kvartali 2014 yil 1 kvartali bilan taqqoslanadi.

Tahlilda monitoring o'tkazishga mas'ul xududiy tashkilotlarni barcha kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subektlarining chorak va yillik ma'lumotlaridan foydalaniladi.

Xududlarda xususiy tadbirkorlik subektlari rivojlanishini balli baxolash va reytingini aniqlash bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni xududlar iqtisodiy, tabiiy shart-sharoit va imkoniyatlaridan kelib chiqqan xolda tashkil etishda muxim rol o'ynaydi. Barcha xisob-kitoblar xududlarga mavjud tumanlar soniga qarab ball shkalasida amalga oshiriladi. Masalan, tahlil qilinayotgan Qashqadaryo viloyatida 13 ta tuman bo'lsa, 14 balli tizimda 10 ta bo'lsa 10 balli tizimda va xokazo.

Eng yuqori ball o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati ko'rsatkichlari yuqori natijalarga erishgan tumanga beriladi, xech qanaqa o'sishga erishmagan tumanga nol ball qo'yiladi.

Barcha ko'rsatkichlar bo'yicha xar bir tumanning bali aniqlanadi.

Pirovard natijalar barcha ko'rsatkichlar bo'yicha ballar umumlashtirilib, soniga bo'linib xususiycha ballar aniqlanadi. Agar xususiycha ball qaysi tumanda yuqori bo'lsa kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojlanishining tumanlardagi holati bo'yicha aniq tasavvurga ega bo'linadi.

Tumanlarni xususiycha ballari bo'yicha, o'rni (reytingi) aniqlanib, guruhlashtiriladi.

Ushbu ball baholashda asosiy maqsad tumanlarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik bo'yicha erishilgan yutuqlar, kamchiliklar, foydalanilmagan imkoniyatlarni aniqlab, respublika viloyat va tuman boshqaruv tashkilotlari tomonidan kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish uchun aniq tadbirlar ishlab chiqish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Tabirkorlikni rivojlanish darajasini tahlil qilar ekanmiz, shuni qayd qilib o'tish kerakki, asosiy natijalardan biri kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni tuman (shahar) ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi, mavjud tabiiy-iqtisodiy salohiyat bilan qanchalik o'zaro bog'liqligini ham ko'rib chiqish lozim.

Buning uchun avalo tumanlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga baho berish kerak. Biz baholashning reyting usulini qo'llashni taklif qilamiz. Tumanlarning ma'lum davr ichida (chorak, yil) rivojlanish darajasi quyidagi asosiy yo'nalishlar orqali aniqlanishi mumkin:

- sanoat;
- qishloq xo'jaligi;
- investitsiyalar;
- ijtimoiy soxa;
- mexnat bozori va bandlik;
- maxalliy budjet va moliyaviy axvol;
- iste'mol bozori.

Eng yuqori ball o'tgan yilga (chorakka) nisbatan yuqori o'sish ko'rsatkichlariga erishgan tumanga beriladi va ular xisoblab chiqilgan ballar asosida turli guruxlarga bo'linadi. (yuqori, xususiy, past).

Tumanlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi va tadbirkorlikni rivojlanishi darajalarini aniqlashdagi reyting (ball) uslubini tumanlarda mavjud tabiiy-iqtisodiy salohiyatni aniqlashda foydalanish mumkin. Bu yerda asosiy e'tibor quyidagi salohiyatlarga qaratiladi.


- iqtisodiy (sanoat, qishloq xo'jaligi);
- ishlab chiqarish infratuzilmasi (asosan transport va aloqa);
- ijtimoiy infratuzilma;
- mineral xom-ashyo infratuzilmasi;
- suv va yer resurslari;
- ishchi kuchi resurslari;
- bozor infratuzilmasi.

Tahlil so'ngida hisob-kitob natijalari asosida tumanlarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlanishi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi, tabiiy-iqtisodiy salohiyat darajalari xususiysidagi o'zaro bog'liqlik aniqlanadi. Shu asosda biz tumanda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishda mavjud nomutanosibliklarni, ichki foydalanilmayotgan imkoniyatlarni ochib berishimiz mumkin.

Bu usullarni amaliyotga tadqiq qilishda ko'pincha mamlakat, viloyat, tuman va shaxarlar xususiysidagi ijtimoiy-iqtisodiy birlik ko'pgina xollarda e'tibordan chetda qoladi. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik istiqbolini ana shu birliksiz amalga oshirish ma'lum nomutanosibliklarga olib kelshi mumkin. Shuni e'tiborga olgan xolda biz 2.3.2-chizmada kichik biznes va xususiy tadbirkorlik istiqbolini belgilashning bosqichlarini taklif qilganmiz.

2.3.1-chizma

Hududda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish istiqbollarini belgilash bosqichlari¹



Birinchi bosqichda davlat tomonidan ishlab chiqilgan mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish strategiyasini hisobga olish zarur.

Ikkinchi bosqichda viloyatning imkoniyatlaridan kelib chiqqan xolda, uning kelajak istiqbollari e'tiborga olinadi.

Uchinchi bosqichda tuman (shahar) ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish yo'nalishlari aniqlanadi.

To'rtinchi bosqichda avvalgi bosqichlarni hisobga olgan holda, tumandagi imkoniyatlar va omillar asosida tadbirkorlikni rivojlantirish istiqbollari belgilanadi.

Oxirgi to'rtinchi bosqich natijalari asosida biz uchinchi, ikkinchi, birinchi bosqich natijalariga ma'lum o'zgartirishlar kiritishimiz mumkin. Misol uchun viloyat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi istiqbollarida kichik biznes va xususiy

¹Manba: Iqtisodiy adabiyotlardan foydalangan holda muallif tomonidan tuzilgan

tadbirkorlikni hudud ichki maxsulotidagi ulushini (ko'paytirish yoki kamaytirish) tumandagi tadbirkorlikni real imkoniyatlari asosida aniqlashtiriladi.

Bu yerda asosiy e'tibor tuman (shahar) miqyosidagi bor imkoniyat va salohiyatdan samarali foydalanish asosida tadbirkorlik istiqbollarini belgilanishiga qaratilgan.

Yaqin va uzoq kelajakka mo'ljallangan xususiy tadbirkorlikni istiqbol rejalarini aniqlash bilan bir qatorda, ularni amalga oshirish mexanizmlarini ishlab chiqish juda muhimdir. Mexanizmlar birligi quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- xuquqiy meyoriy xujjatlarni tayyorlash;
- tashkiliy tadbirlarni amalga oshirish;
- davlat va mahalliy xokimiyat tomonidan tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash va yordam berish dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish;
- xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish uchun qulay iqtisodiy muhit yaratish.

Umuman olib qaralganda, biz taklif etgan xususiy tadbirkorlikni tahlil qilish va

istiqbolini belgilash usullari asosan qo'yidagilari bilan ajralib turadi:

- tahlil va istiqbolni belgilashda o'zaro birlik va bog'liqlik muammosiga e'tiborni qaratilganligi;

- hudud doirasida tuman (shahar)larni birlamchi asosiy tadqiqot obyekti sifatida e'tirof etilishi;

- tahlil va istiqbolni aniqlash natijalarini hududiy, tashkiliy va iqtisodiy mexanizmlarini ishlab chiqish o'ta muhim ekanligini asoslab berilganligi.

Taklif etilayotgan uslublarni nafaqat Qashqadaryo viloyatining Chiroqchi tumanida, balki mamlakatimizning barcha hududlarida xususiy tadbirkorlikni tahlil qilish va istiqbolini belgilashda foydalanish mumkin.

III-BOB. AHOLINI ISH BILAN TA'MINLASHDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNING AHAMIYATINI OSHIRISH YO'NALISHLARI

3.1. Kasanachilik – aholini ish bilan ta'mishning muhim omili sifatida

Eng avvalo, “kasanachi” va “kasanachilik” tushunchalariga to'xtalib o'tsak. Kasanachi deganda o'z uyida birovning buyurtmasiga binoan shartnoma asosida birorta mahsulotni tayyorlab beruvchi 16 va undan katta yoshdagi jismoniy shaxs tushuniladi. Agarda kasanachi bilan korxona o'rtasidagi munosabatlar modiy javobgarlik bilan bog'liq bo'lsa, u holda 18 yoshan boshlab kasanachi bo'lishi mumkin. Kasanachilik deganda esa, ish beruvchining buyurtmasiga asosan shartnoma asosida mahsulot ishlab chiqarish, ish bajarish va xizmat ko'rsatishni o'zining uy xo'jaligida tashkil qilish bilan bog'liq faoliyat tushiniladi. Kasanachilik kasanachi bilan ish beruvchi o'rtasidagi munosabatga asoalanadi. U holda ish beruvchi kim? Ish beruvchi deganda kasanachi bilan tuzilgan mehnat shartnomasiga muvofiq kasanachi uchun ishlab chiqarish binosini belgilaydigan, uni asbob uskunalar, jihozlar, materiallar, butlovchi buyumlar, xom ashyo va boshqa ishlab chiqarish vositalari bilan ta'minlaydigan, bajarilgan ishni qabul qilib oladigan va unga haq to'laydigan yuridik shaxs tushuniladi.

Kasanachilikni rivojlantirish chora-tadbirlariga bag'ishlangan farmon, qaror va boshqa meyoriy hujjatlarda ta'kidlanishicha, yirik sanoat korxonalari bilan kasanachilik o'rtasida kooperatsiya aloqalarining mustahkamlanishi oila budjeti daromadlarini oshirishdek muhim muammoni hal etadi, ish bilan band bo'lmagan aholi sonini keskin qisqartirish va faol qismini ishlab chiqarishga jalb etish imkonini beradi. Ayni paytda kasanachilar ish stajini hisoblash, ularga pensiya va ijtimoiy sug'urta bo'yicha nafaqalar tayinlash huquqi ta'minlanadi. Ko'rinib turibdiki, kasanachilik bilan shug'ullanadigan aholi bevosita korxonalarda ish bilan band bo'lgan aholi singari barcha huquqiy imtiyozlarga ega bo'ladi.

Mamlakatimizda bozor munosabatlari shakllana borgan sari, uning ta'moyillari hayotimizga kirib borishi bilan ishsizlik tushunchasi keskinlashib boraveradi. Erkin raqobat ham bo' jarayonni kuchaytiruvchi omillardandir.

Bularning oldini olish, mehnatga qobiliyatli aholini ish bilan ta'minlashni yo'lga qo'yish har qanday mamlakat rahbariyatining asosiy vazifalaridan biriga kiradi. Shu tufayli bizda ham ushbu ishni yaxshi yo'lga qo'yish uchun keskin choralar ko'rilmogda. Ulardan biri sifatida, mamlakatimiz Prezidentining 2006 yil 5 yanvarda imzo chekkan "Yirik sanoat korxonalari bilan kasanachilikni rivojlantirish asosidagi ishlab chiqarish va xizmatlar o'rtasida kooperatsiyani kengaytirishni rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF - 3706-sonli Farmonini kiritish mumkin. Mazkur farmonni amalga oshirish choralari bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasi 2006 yil 11 yanvarda 4-sonli qarori qabul qilindi. Shu qaror bilan «Kasanachilik to'g'risida Nizom" qabul qilindi. Bundan tashqari "Ish beruvchining buyurtmasi bo'yicha kasanachi tomonmdan ishlarni bajarish (xizmatlar ko'rsatish) uchun namunaviy mehnat shartnomasi"ning shakli ham tasdiqlandi.

Korxona bilan kasanachilar o'rtasidagi munosabatlar "Kasanachilik to'g'risidagi Nizom" asosida amalga oshiriladi. Ta'kidlanganidek, ushbu nizom 2006 yilning 11 yanvardagi Vazirlar Mahkamasining 4-sonli qarori bilan tasdiqlangan. Ushbu nizomda kasanachilar bilan mehnat shartnomasini tuzish tartibi, ularga asbob-uskunalar, jihozlar, inventarlar, xom ashyo, materiallar va yarim tayyor mahsulotlar berish tartibi, mahsulotlarni olib ketish hamda bajarilgan ishlar uchun hisob-kitob qilish kafolatlari va texnik xizmatlar ko'rsatish tizimini tashkil etish, kasanachilar xarajatlarini qoplash tartibi, ularni himoya qilish mexanizmlari, tomonlarning o'zaro javobgarliklari kabi masalalar ko'zda tutilgan. Ushbu nizomda kasanachining mehnatiga haq to'lash shartlari, kasanachining ish vaqti, dam olish va tatil muddati, kasanachilarni ijtimoiy sug'urta qilish va ijtimoiy muhofaza qilish, kasanachilarning mehnat xavfsizligi kabi muhim masalalar ham o'z ifodasini topgan. Shuningdek, nizomda kasanachilar mehnatidan foydalanadigan ish beruvchilarga beriladigan imtiyozlar va ularning qo'llanilishini soliq organlari tomonidan nazorat qilish tartibi ham alohida ko'rsatilgan.

Mazkur farmon va qarorlar respublika aholisining bandligi, ayniqsa qishloq joylardagi ish bilan band bo'lmagan aholini uyda mahsulotlar ishlab chiqarish,

xizmatlar ko'rsatish ishlariga jalb etish uchun va ular daromadlarining barqaror o'sishini ta'minlashga doir vazifalarni hal etishda kasanachilikning turli shakllarini keng rivojlantirish, jumladan, uning yirik sanoat korxonalari bilan kooperatsiyasini kengaytirishga ustuvorlikni berishni ta'minlaydi. Bu tabirlar amalga oshirilsa, ish beruvchilarga real rag'batlar va imkoniyatlar yaratiladi.

Ta'kidlash joizki, ilgari ham oila tadbirkorligiga mos keladigan yakka tadbirkorlik mavjud edi. Lekin kasanachilik yakka tadbirkorlikka nisbatan ancha qulayliklarga va shu bilan bog'liq xususiyatlarga ham ega. Bu qulayliklar va xususiyatlar nimalardan iborat, degan savolning tug'ilishi tabiiy. Bu, bizning fikrimizcha, quyidagilardan iborat:

Birinchidan, kasanachi rasmiylashtirish jarayonida ancha tashvishlardan holi. Yakka tadbirkor o'z faoliyatini boshlashi uchun mahalliy hokimiyatdan ro'yxatdan o'tishi shart, kasanachilar uchun esa faqat ish beruvchi bilan shartnoma tuzsa yetarli.

Ikkinchidan, kasanachilikda yakka tadbirkorga nisbatan faoliyat doirasi kengroq. Yakka tadbirkor o'z faoliyatini yuritishi uchun belgilangan tartibda, belgilangan ish bilan faqat o'zigina shug'ullanishga haqli. Kasanachilikda esa, shartnomada ko'zda tutilgan faoliyatni bajarishga o'zidan tashqari oila o'zolarini ham jalb qilishi mumkin.

Uchinchidan, yakka tartibdagi tadbirkor tadbirkorlik faoliyati bilan o'z uyida shug'ullansa, u yashab turgan uyini yashash uchun mo'ljallanmagan joy maqomiga o'tkazishi shart, kasanachilikda esa, yashab turgan uyi yashash joyi maqomida qoladi. Tadbirkorning uyi yashash uchun mo'ljallanmagan joy maqomiga o'tkazilishi bilan unga kommunal xizmatlar uchun to'lanadigan haq oshib ketadi. Kasanachilikda esa bu miqdor o'zgarmasdan qoladi.

To'rtinchidan, yakka tadbirkor tadbirkorlik faoliyati natijasidan qat'iy belgilangan soliqlarni to'laydi. Bunday soliqlardan kasanachilar ozod. Bunday vazifani ish beruvchilar bajaradi.

Beshinchidan, yakka tartibda faoliyat ko'rsatuvchi tadbirkorlar faoliyatini nazorat qiluvchi organlar tomonidan qonunda belgilangan tartibda va vaqtda

tekshirilib turiladi. Kasanachilikda esa, ularning faoliyati buyurtmachi-korxona qonunchilikda belgilangan tartibda tekshirilgandagina nazorat qiluvchi organlar tomonidan tekshirilishi mumkin.

Oltinchidan, yakka tartibda faoliyat ko'rsatadigan tadbirkor zarur dastgohlar, jihozlar, inventarlar, xamashyo va materiallarni o'zlari topadi va ularni yetkazib kelish ham o'zlarining zimmasida. Kasanachilarga esa, bunday zarur dastgohlar, jihozlar, inventarlar, xamashyo va materiallarni, ta'kidlaganimizdek, ish beruvchi korxona ta'minlaydi.

Yettinchidan, shaxsiy tadbirkorlar barcha faoliyatlari uchun o'zlari mas'ul, ya'ni o'z faoliyatini tashkil qilish, yuritish va tugatishni o'zlari hal qiladi. Kasanachilikda esa, kasanachilar faqat ish beruvchi tomonidan shartnoma asosida bajarilishi lozim bo'lgan faoliyatgagina javob beradi.

Sakkizinchidan, shaxsiy yakka tartibdagi tadbirkorlar o'z xarajatlarini o'zlari qoplaydilar va ularga, odatda, ish haqi to'lanmaydi. Ish haqini faoliyat natijasiga qarab o'zlari belgilashlari mumkin. Kasanachilarga ish haqi bajarilgan ishlariga qarab ishbay tarzda ish beruvchi korxona to'laydi. Kasanachilikni davom ettirish bilan bog'liq barcha xarajatlari uchun ish beruvchi qo'shimcha tarzda kompensatsiya ham to'laydi.

Hozirgi kunda mamlakatimizda kasanachilikni tashkil qilgan korxonalar uchun ham va kasanachilik bilan shug'ullanadigan aholi uchun ham bir qancha imtiyozlar berilgan. Bu imtiyozlarga quyidagilarni kiritish mumkin:

Birinchida, tovarlar (ishlar, xizmatlar) ishlab chiqarish bo'yicha kasanachilarga buyurtma beradigan korxonalar 2006 yil 1 fevralidan boshlab besh yil muddatga, mehnat shartnomasi asosida kasanachilarga to'lanadigan mablag'larga teng miqdorda, mehnatga haq to'lash fondidan yagona ijtimoiy to'lovni to'lashdan ozod qilinadi.

Ikkinchidan, agar korxonalar kasanachilarga ishlab chiqarish va ish bajarish uchun shartnoma asosida asbob-uskunalar va jihozlarni tekin foydalanish uchun bergan bo'lsa, shu foydalanish davrida ushbu jihozlar uchun mulk solig'idan ozod etiladi.

Uchinchidan, kasanachilar tomonidan buyurtmachi korxonalarning ishlab chiqarish texnologiyasiga to'liq amal qilgan taqdirda, uy sharoitida ishlab chiqarilgan mahsulotlar va xizmatlarni qo'shimcha sertifikatlash va standartlash talab etilmaydi.

To'rtinchidan, kasanachilar faoliyati alohida tekshirilmaydi. Ularning faoliyati buyurtmachi-korxona qonunchilikda belgilangan tartibda tekshiril-gandagina nazorat qiluvchi organlar tomonidan tekshirilishi mumkin. Bunday holat nafaqat korxonalar, balki kasanachilik bilan shug'ullangan axolining ham iqtisodiy erkinligini ta'minlash imkonini beradi.

Beshinchidan, kasanachilik mehnati bilan shug'ullanadigan shaxslar mehnat shartnomasi bo'yicha ishlarni bajarish uchun iste'mol qilinadigan kommunal xizmatlarga aholi uchun qo'llaniladigan ta'riflar bo'yicha qat'iy ravishda o'lchov asboblari ko'rsatkichlari asosida haq to'laydilar.

Oltinchidan, kasanachi o'z uyida mehnat qilishiga qaramasdan har yili mehnat tatilini o'rtacha ish haqi saqlangan holda olishga haqli. Uning muddati 15 kundan kam bo'lmasligi lozim. Mehnat tatilini berish vaqti va navbati kasanachi bilan kelishilgan holda ish beruvchi tomonidan tasdiqlangan jadval asosida amalga oshiriladi.

Yettinchidan, kasanachi pensiya va barcha ijtimoiy to'lovlardan korxonada ishlayotgan xodimlar singari foydalanishga haqli. Ularga yoshi bo'yicha pesiya tayinlanadi va ish faoliyatida kasal bo'lib qolgan taqdirda ijtimoiy nafaqa olishga ham haqli.

Mazkur farmon, qaror va boshqa meyoriy hujjatlarda, kasanachilar va shartnoma asosida ishlayotgan korxonalarga, ta'kidlanganidek, birqancha imtiyozlar berilgan ekan. Ammo ushbu imtiyozlarni qo'llashda xato va kamchiliklarga yo'l qo'yilsa, tegishli tarzda choralar ham ko'riladi. Xozirgi paytda suiiste'molchiliklarning oldini olish bo'yicha soliq organlari tomonidan amalga oshiriladigan nazorat tizimi ham ishlab chiqilgan.

3.2. Yoshlarni va kasb-hunar kollejlarini bitiruvchi talabalarni ish bilan ta'minlashda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning roli

Milliy mehnat bozorida yoshlarning iqtisodiy faolligini oshirish ko'p jihatdan mamlakatimizning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish yo'nalishlari bilan belgilanadi. Shuni hisobga olib, kasb-hunar kollejlarida iqtisodiyot tarmoqlari va sohalarida real talab qilinayotgan yo'nalish va mutaxassisliklar bo'yicha kadrlar tayyorlashga katta ahamiyat berilmoqda.

Kasb-hunar kollejlari bitiruvchilarining mehnat bozoriga chiqishi bir necha bosqichni qamrab oladi:

Dastlabki bosqich:

1. Kasb tanlash.
2. Kasb va ixtisoslikni egallash.

Faol bosqich:

1. Faoliyat turini tanlash va ish joyini izlash.
2. Ishga joylashish.
3. Mehnat faoliyatiga kirishish, ishga ko'nikish, ish joyida o'rnatib olish (yoki boshqa ish joyi izlash).

Kasb-hunar kollejlari bitiruvchilarining ish bilan bandligi masalasi, birinchidan, yosh mutaxassislarning mehnat bozoridagi o'rnini ta'minlash, ikkinchidan, bitiruvchilarni ish bilan bandligini ta'minlashga aloqador davlat va jamoat tashkilotlari faoliyati samaradorligini oshirish natijasida o'z yechimini topadi. Bugungi kunda yosh mutaxassislarning ish bilan bandligini ta'minlash borasida mehnat bozori hamda kasb-hunar kollejlarining o'zaro aloqalari mustahkamlanmoqda.

3.2.1-jadval

**Qashqadaryo viloyatida 2013-2015 o‘quv yilida kasb-hunar kolleji
bitiruvchilari bandligi kursatkichlar.**

№	Tuman (shahar) nomi	2012- 2013 y Bitiruv- chilar soni	2012- 2013 y Bandligi ta‘min- langan bitiruv- chilar jami	2012- 2013y foizda	2013- 2014 y Bitiruv- chilar soni	2013-2014 y Bandligi ta‘min- langan bitiruv- chilar jami	2013- 2014 y foizda	2014- 2015 y Bitiruv- chilar soni	2014-2015 y Bandligi ta‘min- langan bitiruv- chilar jami	2014- 2015 y foizda
1	G‘uzor tumani	2805	2575	91,8%	2751	2703	98,3%	3067	2996	97,7%
2	Dehqonobod tumani	1620	1290	79,6%	1754	1619	92,3%	2142	1998	93,3%
3	Qamashi tumani	3732	3233	86,6%	3934	3672	93,3%	4061	3886	95,7%
4	Qarshi tumani	2391	2138	89,4%	2420	2264	93,6%	2580	2526	97,9%
5	Koson tumani	3851	3192	82,9%	3920	3639	92,8%	3932	3705	94,2%
6	Kitob tumani	2255	2064	91,5%	2317	2137	92,2%	2731	2648	97,0%
7	Mirishkor tumani	1333	1220	91,5%	1451	1221	84,1%	1757	1674	95,3%
8	Muborak tumani	1715	1582	92,2%	1518	1459	96,1%	1374	1371	99,8%
9	Nishon tumani	1958	1719	87,8%	2043	1796	87,9%	2144	2068	96,5%
10	Kasbi tumani	2208	1959	88,7%	1905	1698	89,1%	2270	2187	96,3%
11	Chiroqchi tumani	4057	3425	84,4%	4658	4340	93,2%	4694	4565	97,3%
12	Shahrisabz tumani	5087	4070	80,0%	5075	4336	85,4%	5308	4944	93,1%
13	Yakkabog‘ tumani	3593	3528	98,2%	3975	3796	95,5%	3731	3731	100,0 %
14	Qarshi shahri	7214	6598	91,5%	7148	6822	95,4%	6752	6566	97,2%
	Jami	43819	38593	88,1 %	44869	41502	92,6%	46543	44865	96,4%

Manba: Qashqadaryo viloyat Mehnat Bosh boshqarmasi malumotlari


Davlatimiz tomonidan kasb-hunar kollejlari bitiruvchilarining ishga joylashishi uchun doimiy amaliy yordam ko‘rsatilmoqda. Jumladan, “O‘zbekiston madaniyati va san’ati forumi” jamg‘armasi tomonidan tashkil etilgan “Yoshlarni ish bilan taminlashga ko‘maklashish markaz”i va markaz tomonidan amalga

oshirilayotgan tadbirlar ham bu yo‘nalishdagi ishlarning samaradorligini oshirmoqda. Markaz yosh iqtidor egalarini kelajakdagi professional ish faoliyatini yuksaltirishga yo‘naltirilgan bo‘lib, ularning O‘zbekistondagi davlat, nodavlat, biznes va xalqaro tashkilotlarda yoshlarning ixtiyoriy ravishda faol ishtirok etishi, tajriba orttirishi va to‘liq faoliyat olib borishida yaqindan ko‘maklashmoqda.

Kasb-hunar kollejlari bitiruvchilarining ish bilan bandligini boshqarish ularning o‘z mehnat qobiliyatini to‘liq namoyon qilishi uchun munosib ish o‘riniga ehtiyoji va jamiyatning ishchi kuchiga bo‘lgan talablarining mosligini ta‘minlashdan iborat.

3.2.1-chizma

Kasb-hunar kollejlari bitiruvchilarini ishga joylashtirishning asosiy tamoyillari¹



3.2.1-chizmadan ko‘rinadiki, barcha kasb-hunar kollejlari bitiruvchilarning ish bilan bandligini ta‘minlash uchun ta‘limni davr talablariga moslashtirish, bitiruvchilarning ta‘limdan keyingi ish joylariga moslashish davrini qisqartirish, ularga nafaqat nazariy bilimlar, balki iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida haqiqiy ishlab chiqarish faoliyati bilan shug‘ullanish imkonini beradigan amaliy

¹Manba: Iqtisodiy adabiyotlardan foydalangan holda muallif tomonidan tuzilgan

bilimlarni berishi, bitiruvchilarga o'qishni tugatishi bilan oq ish topish imkoniyatlarini yaratishlari zarur.

Bugun mamlakatimizda yoshlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularning jamiyatda o'z o'rnini topishi uchun barcha shart-sharoitni yaratish maqsadida keng ko'lamli chora tadbirlar amalga oshirilmoqda. Ayniqsa, ularni ish bilan ta'minlash, tadbirkorlikka jalb etish bo'yicha davlatimiz rahbarining bir qator Farmon va qarorlari e'lon qilindi.

Shuningdek, 2010 yilning 28 iyulida Prezidentimizning "Ta'lim muassasalarini bitiruvchilarining tadbirkorlik faoliyatiga jalb etish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni qabul qilindi. Unga binoan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishni yanada rag'batlantirish, yoshlarni tadbirkorlik faoliyatiga keng jalb etish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish maqsadida bir qator imtiyozlar joriy etildi. Misol tariqasida, mikrofirmalar va kichik korxonalar mamlakatimizdagi kasb-xunar kollejlari, akademik litseylar va oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilari bilan mehnat shartnomalari tuzganda, xodimlarning o'rtacha yillik soni qonun hujjatlarida belgilangan meyorlaridan ko'pi bilan 20 foiz oshirilgan hollarda, mikrofirmalar va kichik korxonalar uchun nazarda tutilgan imtiyozlar, kafolatlar va huquqlar ularda saqlanib qoladi.

Bundan tashqari, davlatimiz rahbarining "Tadbirkorlik faoliyatini yanada ko'llab-quvvatlash va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorida kichik korxona o'z uylarida ishlayotgan (kasanachilik bilan shug'ullanayotgan) fuqarolar bilan qonun hujjatlarida belgilangan xodimlar sonining cheklangan meyoridan ko'pi bilan 30 foiz oshmagan miqdorida mehnat shartnomalari tuzganda, ular uchun nazarda tutilgan kafolatlar, imtiyozlar va preferensiyalar saqlab qolinishi belgilangan. Aynan mana shu hujjatlarda belgilangan normalar "Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 5-moddasiga tegishli qo'shimcha kiritish zaruratini tug'dirdi. Chunki ushbu moddaga muvofiq, mikrofirma va kichik korxona xodimlarining belgilangan o'rtacha yillik sonini oshirib yuborgan taqdirda, oshirib yuborishga yo'l qo'yilgan

davo uchun va keyingi uch oyga ular qonun hujjatlarida nazarda tutilgan imtiyozlar, kafolatlar va huquqlardan mahrum etiladi.

Mamlakatimiz va uning hududlarida yanada qulay biznes-muhit yaratish, xususiy mulkchilikning ustivorligini mustaxkamlashga yunaltirilgan qonun hujjatlarini takomillashtirish masalasi Dasturdan alohida o‘rin egallagan. Darhaqiqat, soxaga oid qonunchilikning zamon talabiga mos tarzda takomillashtirilib borilishi muxim ahamiyatga ega. Ayniqsa, mustaqilligimizning yigirmanchi yilida jamiyatimizda tadbirkorlik qanday marralarni egallagan bo‘lsa, huquqiy asoslar ham shunga muvofiq bo‘lishi mamlakatimizni yangi taraqqiyot cho‘qqilariga yetaklaydi.

Shu bilan birga, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining huquq va manfaatlarini himoya qilish ko‘lamida yanada kengayadi. Ayni kunlarda qishloq aholisining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini oshirish, yoshlarni, eng avvalo, kasb-hunar kollejlari va oliy ta‘lim muassasalari bitiruvchilarini tadbirkorlik faoliyatiga keng jalb etish, yoshlarga tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanishlari uchun yaratilayotgan keng imkoniyatlardan foydalanish uchun ko‘mak berish borasida qilayotgan amaliy ishlar ham Davlat dasturidan ko‘zlangan maqsad-muddaolarga hamohang.

Kollejni tamomlab, katta hayotga kirib kelayotgan bitiruvchi ishga joylashsa, o‘z kuchi va salohiyati bilan yutuqqa erisha boshlasa, ertangi kunga, kelajakka ishonchi ortadi, hayotga qarashi o‘zgaradi. Bu jarayonda uni atrofdagilar qo‘llab-quvvatlashi muhim o‘rin tutadi. Keyingi 10 yil davomida o‘rta maxsus, kasb-hunar va oliy ta‘lim tizimida 100 dan ziyod yo‘nalish, 265 ta mutaxassislik va 700 ta kasb bo‘yicha ta‘lim olgan va zamonaviy fikrlash salohiyatiga ega bo‘lgan bir million nafardan ortiq yangi avlod mutaxassislari tayyorlandi.

Yuqoridagilarga asoslanib, respublikamiz va uning mintaqalarida aholining bandligini oshirish, ishchi kuchidan samarali foydalanishda quyidagilarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

➤ ma‘lumki, mamlakatimizda aholining 62,5 foizidan ko‘prog‘i qishloq joylarida yashaydi. Shunga muvofiq mehnatga yaroqli aholining ham

shuncha qismi qishloq aholisi hisobiga to'g'ri keladi. Shuning uchun qishloq aholisining faoliyati sohalari va turlarini kengaytirish talab qilinadi;

➤ ayni paytda bugun alohida muhim ahamiyat kasb etadigan yana bir masala – yoshlarni, bo'lg'usi kadrlarni tayyorlash sifati bilan bog'liq. Tabiiyki, bu borada pedagogik kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash tizimi qanday tashkil etilgani hal qiluvchi ahamiyatga ega. Bu masala umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'limni isloh qilish tizimining eng dolzarb vazifasi bo'lmog'i zarur. Litsey va kollejarimizda ta'lim jarayonlariga oliy o'quv yurtlarining tajribali amaliyotchi va o'qituvchilarini yanada keng va faol jalb etish lozim;

➤ ijtimoiy yo'naltirilgan mehnat bozori faoliyatini yildan-yilga kengaytirib borib, ular tomonidan o'tkazilayotgan mehnat yarmarkalarining muntazam tashkil qilinishini ta'minlash zarur;

➤ ishchi kuchiga talab va taklifni tartibga soluvchi mustahkam rivojlangan mahalliy va xorijiy bandlik xizmati tashkilotlari tizimini takomillashtirish lozim;

➤ respublika va uning mintaqalarida yangi ish joylarini tashkil etish, aholi bandlik darajasini oshirish va ishlab chiqarish salohiyatidan maqsadli foydalanish bo'yicha chuqur iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish zarur;

➤ aholining oqilona bandligini takomillashtirish maqsadida amalga oshirilayotgan dasturlarning monitoringini muntazam olib borish lozim;

➤ qayta ishlash sanoati, xizmat ko'rsatish sohasida yangi ish joylarini yaratish kerak;

➤ ishchi kuchiga talabning oshishi va ishsizlikning kamayishini ta'minlovchi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish lozim;

➤ xizmat ko'rsatish sohasini samarali mahalliy va xorijiy texnika va texnologiya bilan ta'minlash darkor;

➤ mehnat bozori, ishsizlik va aholi bandligi jarayonlarini tartibga soluvchi tashkiliy-iqtisodiy va huquqiy mexanizmlarni takomillashtirish lozim.

Prezident Islom Karimov O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011 yil 21 yanvarda bo'lib o'tgan majlisida umuman aholining, shu jumladan,

yoshlarni ish bilan ta'minlash, jumladan, shahar, viloyatlardagi yoshlarni kollejni bitirganlaridan so'ng o'z sohalari bo'yicha ish topishlarini ta'minlash borasida maqsadli rejalar tayyorlash va uni amalga oshirish masalalarini o'rganib chiqishni,

„korxona – kollej“ aloqalarini yo'lga qo'yishni qo'llab-quvvatlashni ta'kidlab o'tdi.

Mehnat bozorida yoshlar guruhining boshqa guruhlariga qaraganda betakrorligi shundaki, aynan yoshlar mehnat bozoriga ilk bora kirib boradilar. Ular mobil, yangilikka tez o'rganuvchan, o'z kuchiga ishonuvchan, lekin yoshlarning ish bilan bandligini ta'minlash borasida bajarilayotgan ishlardagi xatoliklar va kamchiliklar ularning sohalariga mos ish topishlari, hayotiy ehtiyojlarini qondirish uchun yetarli ish haqi bilan ta'minlanmasliklariga olib keladi. Hozirgi davrda yoshlarni ish bilan ta'minlash borasida bir qancha muammolar mavjud, jumladan:

- ko'pchilik yoshlar o'zlari hali qanday firma yoki kompaniyada ishlashni xohlashlarini ko'z oldilariga keltira olmaydilar, ya'ni qanday ishni tanlashni aniq bilmaydilar;

- yoshlarning mehnat bozorida raqobatbardosh emasligi natijasida ish beruvchilar ularni yollashni xohlamaydilar, ko'pincha ular kamida 3 yillik ish stajiga ega bo'lganlarni ishga olishni xohlaydilar.

Bu muammolarni hal qilish maqsadida bir qancha chora-tadbirlar amalga oshirildi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil 28 iyulda qabul qilingan “Ta'lim muassasalarining bitiruvchilarini tadbirkorlik faoliyatiga jalb etish borasi-dagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi Farmoni yoshlarning ish bilan bandligini ta'minlash muammolarini hal qilishda muhim ahamiyat kasb etdi.

Hozirgi paytda O'zbekistonda yoshlarni ish bilan ta'minlash va tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishi uchun keng sharoitlar yaratilmoqda. Ayniqsa, kasb-hunar kollejlari bitiruvchilarini ish bilan ta'minlashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Kollejlar va korxonalar o'rtasida bitiruvchilarning ishlab chiqarish

amaliyotini o'tashi va kelajakda mazkur korxonalarda ishga joylashishi bo'yicha shartnomalar tuzish yo'lga qo'yildi. Mazkur kelishuvlar asosida 2015 yilda 400 mingdan ortiq bitiruvchi ish bilan ta'minlandi.

Mamlakatimizning yoshlar mehnat bozorida talab va taklif muvozanatini ta'minlash maqsadida ularning tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishini rag'batlantirish bo'yicha quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish lozim:

- yoshlarning tadbirkorlik faoliyatini tartibga solish bo'yicha meyoriy hujjatlarni takomillashtirish;
- yosh tadbirkorlarga moliya-kredit va xom ashyo resurslarini olishlarida yordam berish tizimini shakllantirish;
- yosh tadbirkorlar uchun soliq imtiyozlarini kengaytirish;
- ularning tashqi iqtisodiy faoliyatidagi ishtirokini kengaytirishni qo'llab-quvvatlash;
- yosh tadbirkorlarni bozor konyunkturasi, xom ashyo va moliyaviy resurslar bozori bo'yicha axborot bilan ta'minlovchi infratuzilmani shakllantirish;
- yosh tadbirkorlarni tayyorlash va qayta tayyorlash, malakasini oshirish tizimini yanada rivojlantirish va boshqalar;
- yoshlarning kasb tanlash jarayonlarida ularning psixologik, jismoniy va aqliy qobiliyat va iqtidorlarini alohida o'rganish lozim.

Aholi tarkibidan ma'lumki, mehnat bozorida teng sharoitlarda raqobatlashishga qodir bo'lmagan shaxslar ichida bitiruvchi yoshlar ko'pchilikni tashkil etadi. Ta'limni rivojlantirish islohotlari va Kadrlar tayyorlash milliy dasturining amalga oshirilishi natijasida respublikamizda yoshlarning kasb-hunar kollejlariga bo'lgan qiziqishi tobora ortib bormoqda. Shunga mos ravishda kollejlarni bitiruvchilar soni ham yildan-yilga ko'payib bormoqda.

2015 yilda Dastur doirasida tashkil etiladigan ish o'rinlariga, shuningdek mavjud bo'sh va band qilingan ish o'rinlariga kasb-hunar kollejlarining 487,7 mingdan ortiq bitiruvchisini ishga joylashtirish rejalashtirilmoqda.

Ushbu maqsadda «kollej–korxona» tizimi bo'yicha kasb-hunar kollejlariga iqtisodiyotning turli sohalaridagi 100 mingdan ortiq korxona va tashkilotlar

biriktiriladi, shuningdek bitiruvchilarning ish izlash jarayonini qisqartirish maqsadida barcha tuman va yirik shaharlarda bo'sh ish o'rinlarining kamida 1180 ta yarmarkalari tashkil etiladi.

Kasb-hunar kollejlari va oliy o'quv yurtlarining bitiruvchilarini ishga joylashtirish bilan bir qatorda ularga o'z tadbirkorlik ishini boshlash va yuritish uchun tijorat banklarining imtiyozli kreditlarini ajratish amaliyotini davom ettirish nazarda tutilmoqda.

Bitiruvchilarni ishga joylashtirish maqsadida har bir tuman va shahar bo'yicha maxsus chora-tadbirlar ishlab chiqiladi, ularning ijrosini ta'minlashda barcha manfaatdor vazirliklar va idoralar, davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, hokimliklar, korxona va tashkilotlar ishtirok etadi.

Ish o'rinlariga bo'lgan ehtiyoj mehnat bozorida ilk bor ish kuchini taklif qiladigan shaxslar (akademik litseylar, kasb-hunar kollejlari, oliy o'quv yurtlari va boshqa ta'lim muassasalari bitiruvchilari bo'lmish mehnatga layoqatli yoshdagilar), shuningdek ishga joylashishga muhtoj band bo'lmagan aholi (ish joyi va daromad manbaiga ega bo'lmaganlar, chet ellardan ishlab qaytgan mehnat migrantlari, muddatli harbiy xizmatdan bo'shatilganlar, jazoni ijro etish muassasasidan ozod etilgan, ishlamayotgan shaxslar va shu kabilar) hisobiga shakllantiriladi.

Shu maqsadda ishchi kuchi taklifining ortishi mehnat sifatini va ishlab chiqarishning raqobatbardoshligining yanada ortishiga ko'maklashadi deb o'ylamaymiz.

Kasb-hunar kollejlari bitiruvchilarini ish bilan ta'minlagan xo'jalik subyektlariga qo'shimcha imtiyozlar berish zarur deb o'ylaymiz.

XULOSA

Mamlakatimiz iqtisodiyotining rivojini xususiy biznes va tadbirkorlik subyektlarisiz tasavvur etish qiyin. Chunki mazkur soha oilaviy daromad manbai, farovon turmush kafolati, cheksiz imkoniyatlarning yetakchi omili hisoblanadi. Shu jihatdan qaraganda, yurtimizda tadbirkorlik odamlarning ijodiy va intellektual salohiyatini yuzaga chiqaruvchi vositaga aylanib ulgurgani ahamiyatlidir. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning muhim shakli sifatida oilaviy korxonalarga, ishbilarmonlikka berilayotgan huquqiy kafolatlar esa, o'z navbatida, tarmoqni uzluksiz taraqqiy ettirish hamda yangi ish o'rinlarini tashkil etish imkonini yaratayotir.

Bitiruv malakaviy ishini yozish jarayonida quyidagi xulosalar shakllantirildi:

Birinchidan, kichik biznes sohasida yaratilayotgan ish o'rinlarining salmoqli qismi xizmat ko'rsatish va servis sohasi ulushiga to'g'ri keladi.

Ikkinchidan, ko'p hollarda aholining ko'payishi natijasida mehnat bozorida yuzaga kelgan yuqori demografik bosimga qaramasdan, kichik biznesning jadal rivojlanishi tufayli band bo'lgan aholi sonining jadal sur'atlarda ortib bormoqda.

Uchinchidan, ish o'rinlarini yaratish bo'yicha amalga oshirilayotgan tadbirlar asosan band bo'lmagan aholini, ayniqsa, qishloq joylaridagi, birinchi navbatda yoshlar, ayollar, nogironlar, ta'lim muassasalarining bitiruvchilarini ishga joylashtirish, kasbiy qayta tayyorlash va ijtimoiy himoyalashga qaratilgan.

Bitiruv malakaviy ishi mavzusini yoritish jarayonida bir qator takliflar ham yuzaga keldi. Ular quyidagilar:

1. Ish o'rinlarini yaratishda ayniqsa, kasanachilik, oilaviy tadbirkorlik, hunarmandchilikni rivojlantirishga e'tibor qaratish lozim.

2. Aholining ish bilan ta'minlanganligining hududlar bo'yicha monitoringini olib borish, xususan, ishchi kuchi migratsiyasiga ham e'tibor qaratish lozim.

3. Yaratilayotgan ish o'rinlarining haqqoniyligi, ish bilan band aholini ro'yxatga oluvchi dastur yaratish hamda Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza

qilish organlari tomonidan yaratilayotgan ish o‘rinlarini onlayn tarzda ro‘yxatga olishni yo‘lga qo‘yish lozim.

4. Ish o‘rinlarini yaratishda mehnat bozorida ilk bor ish kuchini taklif qiladigan shaxslar, ayniqsa, akademik litseylar, kasb-hunar kollejlari, oliy o‘quv yurtlari va boshqa ta’lim muassasalari bitiruvchilari bo‘lmish yoshlarning ish bilan ta’minlanishiga alohida e’tibor qaratish lozim.

Yuqorida xulosa va takliflarning inobatga olinishi va amalga oshirilishi mamlakatimizda aholining ish bilan ta’minlanganligi, xususan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning bu jarayondagi salmog‘ining yanada ortishini ta’minlab beradi deb o‘ylaymiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

I. O'zbekiston Respublikasi qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – T.:O'zbekiston, 1992. -46 b.

2. O'zbekiston Respublikasining “Tadbirkorlik to'g'risida”gi Qonuni. 1991 y. 15 fevral

3. O'zbekiston Respublikasining “Oilaviy tadbirkorlik to'g'risida”gi Qonuni O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2012 y., 17-son, 188-modda

4. O'zbekiston Respublikasining Qonuni “Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi qonuniga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida” “Xalq so'zi” gazetasi, 03.05.2012 y.

3. O'zbekiston Respublikasining “Oilaviy tadbirkorlik to'g'risida”gi Qonuni O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2012 y., 17-son, 188-modda

4. O'zbekiston Respublikasining Qonuni “Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi qonuniga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida” “Xalq so'zi” gazetasi, 03.05.2012 y.

5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “O'zbekiston iqtisodiyotida xususiy sektorning ulushi va ahamiyatini oshirish chora-tadbirlari to'g'risi”dagi Farmoni. 2003y. 24 yanvar.

6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Mikrofirmalar va kichik korxonalarni rivojlantirishni rag'batlantirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risi”dagi Farmoni. 2005 yil 20 iyun.

7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni yanada rivojlantirish uchun qulay ishbilarmonlik muhitini shakllantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi Farmoni .2011 yil 24 noyabr

8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Bozor islohotlarini chuqurlashtirish va iqtisodiyotini yanada erkinlashtirish sohasidagi ustuvor yo'nalishlarni amalga oshirishni jadallashtirish chora tadbirlari to'g'risida»gi Qarori 2005 y. 14 iyun.

9. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Aholi sonining tanlama statistik kuzatuvini tayyorlash va o‘tkazish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori 2011 y. 14 mart

10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 15 maydagi PF-4725-son Farmoni Xususiy mulk, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni ishonchli himoya qilishni ta‘minlash, ularni jadal rivojlantirish yo‘lidagi to‘siqlarni bartaraf etish chora-tadbirlari to‘g‘risida

II. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning asarlari

11. Karimov I.A. O‘zbekiston XXI asrga intilmoqda: Birinchi chaqiriq O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining o‘n to‘rtinchi sessiyasidagi ma‘ruza. 1999 yil 14 aprel.-T.: O‘zbekiston, 1999. -19 b.

12. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O‘zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo‘llari va choralari. – T.: O‘zbekiston, 2009. -54 b.

13. Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi -T.: O‘zbekiston, 2010 -46 b.

14. Karimov I.A. Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir. T.: O‘zbekiston, 2010 -28 b.

15. Karimov I.A. Demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini shakllantirish – mamlakatimiz taraqqiyotining asosiy mezonidir.–T.: O‘zbekiston, 2011, 325 b.

15. Karimov I.A. 2012 yil Vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko‘tara6igan yil bo‘ladi. T.: O‘zbekiston, 2012 - 19 b.

17. Karimov I.A. Bosh maqsadimiz – keng ko‘lamli islohotlar va modernizatsiya yo‘lini qat’iyat bilan davom ettirish. T.: O‘zbekiston, 2013 - 18 b.

18. Karimov I.A. Ona yurtimiz baxtu iqboli va buyuk kelajagi yo‘lida xizmat qilish eng oliy saodatdir. T.: “O‘zbekiston”, 2015.

19. 2015 yilda ish o‘rni tashkil qilish va aholi bandligini ta‘minlash davlat Dasturi.II. Asosiy va qo‘shimcha adabiyotlar.

20. Bekmuradov A., Sattorov S., To‘rayev J., Soliyev Q., Ro‘ziyev S. Kichik biznes va tadbirkorlik rivoji –davr talabi. –T.: TDIU, 2005. -345 b.

21. Karimov F., Xodjayev R. Kichik biznesni boshqarish. –T.: «Iqtisodmoliya», 2010. -374 b.

22. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik: tashkil etish, rejalashtirish, boshqarish. O‘quv qo‘llanma, mualliflar jamoasi. T.: «Fan va texnologiyalar», 2005. – 415 b.

23. Sindarov K., Jumanazarov I. Tadbirkorlik subektlarini tekshirishning huquqiy asoslari. –T.: “Yangi asr avlodi”, 2006. -220 b.

24. Strategiya zanyatosti. Otv. red. L.S.Chijova. -M. Ekonomika, 2009. – 180 s.

25. Tadbirkorlarning huquqlarini himoya qilish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasining normativ hujjatlari. -T.: O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, 2011. – 115 b.

III. Davriy nashrlar, statistik to‘plamlar va hisobotlar.

26. Nasimov D.A. Bandlikni ta‘minlashda kasb-hunar kollejlarning roli //«Ekonomika. Sotsialnaya zashita. Obrazovaniye. Zanyatost v XXI veke». Materiali mejdunarodnoy nauchno-prakticheskoy konferensii. – Samarqand: 2007. – S. 250-251.

27. Rasulova D. Respublikada mehnat migratsiyasi jarayonlarining hozirgi holati. Moliya ilmiy jurnali. 2012 yil 4-son, 49-54 bb.

28. Doklad o chelovecheskom razvitii – Uzbekistan 2005 g. –T.: 2006.

29. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlari

30. O‘zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi ma’lumotlari.

IV. Internetdagi saytlar

31. www.gov.uz

32. www.stat.uz

33. www.tfi.uz

34. www.lex.uz

35. www.webeconomy.ru

36. www.gazeta.ru